

A.J.Ibragimov, A.E.Sharipov,
N.T.Boboyeva, Z.M.Qurbonova



SURXONDARYO VILOYATI FLORASINING YOVVOYI MANZARALI O'SIMLIKLARI



A.J.Ibragimov, A.E.Sharipov, N.T.Boboyeva, Z.M.Qurbonova

**SURXONDARYO VILOYATI
FLORASINING YOVVOYI MANZARALI
O'SIMLIKLARI**

“LESSON PRESS”

Toshkent

2020

UO'K:

KBK:

A.J.Ibragimov, A.E.Sharipov, N.T.Boboyeva, Z.M.Qurbonova. Surxondaryo viloyati florasining yovvoyi manzarali o'simliklari. Monografiya. – Toshkent, “Lesson Press” nashriyoti, 2020 yil. – 134 bet

Monografiyada mamlakatimizning janubiy hududida joylashgan Surxondaryo viloyati (Boysun, Ko'hitang Bobotog' floralari tarkibidagi tabiiy holda o'suvchi 21 oila, 37 turkumga mansub 118 turdagi manzarali o'simlik turlarining biologik tavsifi, fenologiyasi, tarqalish areali, ekologiyasi hamda o'simlik turlarining o'zbek-rus-ingliz tilidagi lugatlari, O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan turlari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Monografiyadan floristlar, sistematiklar, botaniklar, ekologlar, qo'riqxonalar ilmiy xodimlari, oliy o'quv yurtlarining biologiya, geografiya, ekologiya ta'lim yo'nalishi talabalari, akademik litsey o'quvchilari hamda shu soha bilan qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Monografiyada o'simliklarni rasmlari va ularni joylashtirishda yaqindan yordam bergan Biologiya ta'lim yo'nalishi talabalari B.Karimov va B.Choriyevlarga mualliflar o'z minnatdorchiligini bildiradi

Taqrizchilar: Namangan davlat universiteti Botanika kafedrasini mudiri, biologiya fanlar doktori **A.R.Batoshov**

TerDU Botanika kafedrasini dotsenti, biologiya fanlari nomzodi **X.Қ.Жумаев**

Ushbu monografiya Termiz davlat universiteti Kengash yig'ilishining 2020 yil 05 dekabrda № 5.2.2 - sonli qarori bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

ISBN:

© “LESSON PRESS” MCHJ nashriyoti, 2020y

KIRISH

O'zbekiston hududi o'zining rang-barang landshaftlari, flora hamda faunalari bilan ajralib turadi va Yer sayyorasidagi tirik tabiatning rang-barangligini asrab qolishda alohida ahamiyatga molik deb topilgan dunyoning 200 ta ekohududidan biri hisoblanadi. O'zbekiston hududida ko'plab jaydari hamda yo'qolib ketish xavfi ostida turgan global ahamiyatga molik o'simlik turlari o'sadi. Bu yerda antiqa va rang-barang o'simlik turlarining tabiiy ko'payish markazlari, jumladan, ko'plab juda kamyob madaniy o'simliklar avlodi aniqlangan.

O'zbekiston O'rta Osiyoda aholi eng zich joylashgan mamlakatdir. Qadim davrlardan boshlab, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan so'ng insonning mamlakatning ekotizimiga ta'siri omili ko'chayib borgan. O'zbekistonning Farg'ona, Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Toshkent vohalarining o'zlashtirilishi oqibatida tabiiy ekotizim o'rnini butunlay antropogen landshaftlar egalladi.

Surxon vohasi tabiiy florasi tarkibida ham bugungi kunda manzarali hisoblangan turlar soni umumiy floraning 15% ni tashkil etadi. Bugungi kunda Ko'hitang, Boysun va Bobotog' tizmalari florasi tarkibidagi manzarali turlarning asosiy qismini *Alliaceae*, *Iridaceae*, *Liliaceae*, *Asphodelaceae* oilalari vakillari tashkil etadi. Bu o'simliklarning ko'pchilik turlari madaniylashtirishga moyildir. Tabiiy holda o'suvchi manzarali o'simliklar orasida O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan va endem o'simlik turlari ham uchraydi. Ularni bugungi kundagi populyatsiyasining ahvolini, kamayib ketish sabablarini o'rganish dolzarb muammolardan biri sanaladi. Buning uchun tabiat qo'yniga dam olishga

chiqadigan sayyohlarga, turistlarga va mahalliy aholi o'rtasida tushuntirish ishlarini olib borish zarur.

Surxon vohasining boy florasi tarkibida manzarali o'simliklarning ko'plab turlari uchraydi. Manzarali o'simliklarning hammasi hali yetarli darajada o'rganilmagan. Lekin voha o'simliklar qoplami xilma-xil iste'molbop o'simliklar genofondining ombori, balki ko'plab dorivor, manzarali, efirmoyli, qurilish va chorvachilik uchun yem-xashak ba'zasi manbai hisoblanadi. Shuning uchun bu yerda maxsus kuzatuv va ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

SURXONDARYO VILOYATINING TABIIY GEOGRAFIK O'RNI

Surxondaryo viloyati O'zbekiston janubida joylashgan bo'lib, g'arbda Ko'hitang tizmasi, shimoldan Boysun, shimoliy-sharqdan Hisor tizmasining janubiy yonbag'ri, sharqida esa Bobotog'ning g'arbiy yonbag'irlarining quyi qismi bilan o'ralgan.

O'zbekistonni botanik-geografik jihatdan rayonlashtirish va o'simliklarining xilma-xil ma'lumotlar bazasini tuzish natijasida, Surxondaryo viloyati Tog'li O'rta Osiyo provinsiyasi tarkibidagi 3 ta okrug, okruglar tarkibida esa 5 ta botanik-geografik rayonlarga ajratilgan.

I-6 G'arbiy Hisor okrug.


I-6-c Boysun, I-6-d Ko'hitang, I-6-e Surxon-Sherobod rayonlari. (I-6-a Qashqadaryo, I-6-b Torqopchog'ay rayonlari Qashqadaryo viloyatiga tegishli).

I-7 Hisor-Darvoz okrug.

I-7-a Sangardak-To'palang rayoni.

I-8 Panjoldi okrug.

I-8-a Bobotog' rayoni.



Boysun botanik geografik rayoni

Boysun Botanik Geografik Rayoni Surxondaryo viloyatining Boysun, Denov va Oltinsoy tumanlari hududida joylashgan. Mazkur mintaqaning asosini Boysun va Cho'lbair tog'lari tashkil etadi. Boysun tog'i ellipssimon shaklda bo'lib, 150 km masofada cho'zilgan. Bu hudud geografik jihatdan Pomir-Oloyning Janubi-G'arbiy Hisor tizmasini yirik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Tog' suvayrig'ich qismdan 2 yirik yonbag'irlikka ajraladi. Baland qoyali tog'lar ma'lum bir chegaralarda quyidagi nomlar bilan ataladi: Ketmon-Chopti, Xo'ja Qo'chqor-ota, Xo'ja-G'urg'ur-ota, Bel-Auti bu tog'lar o'zaro birgalikda Boysun tog' tizmasini tashkil qiladi. Cho'lbair tog'i esa Boysun tog'iga nisbatan parallel ravishda qad rostlagan. Ketmon-Chopti tog'i: Machay-daryosi havzasi hamda Boysun shahri oralig'ida joylashgan bo'lib, Boysun tog' tizmasining boshlanish qismidir.

Tog'ning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3160 metrni tashkil qiladi. Bu tog'ning suvayrig'ich qismidan har ikki tomonga Machay-daryosi havzasi va To'da qishlog'i orqali Boysun soyga quyiladi. Ketmon-Chopti tog'i Sanjar cho'qqisi orqali Xo'ja-Qo'chqor-ota tog'i bilan bog'lanadi. Xo'ja-G'urg'ur-ota tog'i: Xo'ja-Buzbarak, Xo'ja-Chal nomlari deyarli bir joyga nisbatan ishlatiladi. Tog'ning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3223 metr. Tog'ning shimol tomonida parallel ravishda Cho'lbair tog'i joylashgan. Xo'ja-Gurgur-ota tog'idan oqib chiqadigan Deymalik, Aylangar, Shatut, Paraxnaur kabi soylari, Cho'lbair tog'idan Chindon, Aksu, Qizilsuv singari soylar qo'shilib, Halqajar daryosini hosil qiladi. Tog'ning janub tomonidan qor va buloq suvlaridan to'yingan yirik

soylaridan biri Chaqmoq va Juxin singari soylari Machay daryosiga quyiladi. Tog' o'z navbatida Bel-Auti tog'iga qo'shiladi.

Bel-Auti tog'i: Xo'ja Gurgur-ota tog'ining davomi bo'lib, Sariosiyo va Boysun tumanlarini bir biridan, undan tashqari Hisor-Darvoz okrugini Janubi-G'arbiy Hisor okrugidan ajratib turadi. Suv ayrig'ich qismidan janub va shimol tomonlariga bir nechta soylar hosil bo'ladi. Janub tomondan Irg'ayli, Ko'kkamar va Qizilsoy kabi yirik soylar o'zaro qo'shib, Machay daryosini hosil qiladi. Shimol tomonidan esa Mikyan, Pilgar, Qaratosh kabi soylar bo'lib, ular o'z suvlarini Sangardak daryosiga quyadi. Bel-Auti tik qoyali tog' bo'lib, eng baland nuqtasi dengiz sathidan 3239 metr. Bu tog' Yalangto'sh dovoni orqali Cho'lbair tog'iga bog'lanib turadi.

Cho'lbair tog'i: Janubi-G'arbiy Hisor tog' tizmasining janubi-g'arbiy tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Janubiy-g'arbdan shimoliy-sharqqa 60 km dan ziyod masofaga cho'zilgan. Eng baland joyi d.s. 3812 metr bo'lib, Xo'ja-Borku deb nomlanadi. Yon bag'irlari assimetrik tuzilishga ega. Janubi-sharqiy yon bag'irliklari ancha tik qoyali 1500 metrgacha. Tog'ning shimol tomonidan Kichikdaryo va Nuragan soylari oqib chiqadi va o'z suvlarini Sangardak daryosiga quyishadi. Janub tomonidan Chindon, Aksu, Qizilsuv soylari oqib chiqadi va suvlarini Halqajar daryosiga qo'shiladi. Tog'dan Sangardak daryo havzasiga nisbatan parallel ravishda Vaxshivor daryo havzasi boshlanadi. Mazkur tog'larning barchasida bir qismi tik qoyali ikkinchi tomoni esa qiya tekis soylarga ajralgan.

Ko'hitang tabiiy geografik rayoni

Ko'hitang tizmasi Pomir-Oloy tog' tizimining Janubi-G'arbiy Hisor tizmasining davomi hisoblanadi. Ko'hitang tizmasi shimoldan Suvsiztog' bilan chegaralanadi. Sharqiy chegarasi Kelif-Sherobod pasttekisliklari bilan, janubiy hududi Amudaryo bilan tugaydi. Ko'hitang tizmasining g'arbiy yonbag'ri Turkmaniston Respublikasining hududi hisoblanadi. Ko'hitang tizmasi janubi-g'arbgacha 50 km ga cho'zilgan va balandligi 3137 m ga etadi. Bu erda karst jarayoni rivojlangan. Ko'hitang tizmasi butun bir qatlamlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Qattiq tog' jinslari, qumtoshli qatlamlar birlashib 700 metrgacha qalinlikda bo'lsa, ustki qismi 500 metrgacha zich ohaktoshli qatlamlar bilan qoplangan.

Ko'hitang tizmasining janubiy qismida kompleks metamorfik jinslar keng tarqalgan bo'lib, to'rtlamchi davrdan hozirgi davrgacha tog' emirilishlari natijasida qatlamlar yo'q bo'lib ketgan.

Ko'hitang tog' tizmasining g'arbiy yonbag'ri birmuncha nishabroq bo'lib, sharqiy yonbag'ri haddan tashqari tik qoyaligi va ensizligi bilan izohlanadi. Balandligi 500-600 metr keladigan tik qoyalar tog' yuzasidan ajralib turadi.

Tizma reliefi murakkab bo'lib, chuqur daralar hosil qilib oqadigan soylar ta'sirida parchalanib ketgan. Bu erda ham neogen, paleogen, bo'r, trias, toshko'mir, devon, silur, to'rtlamchi davr yotqiziqlarini uchratish mumkin. Bu yotqiziqlarning g'oyat katta qismi allyuvial, prolyuvial va qumtoshli qatlamlar bilan qoplangan. Qo'riqxonada zamini granitli, ohaktoshli, slanesli va boshqa jinslardan iborat bo'lib, ayrim joylarida ko'mirli qatlamlar hamda magmatik jinslar ham uchraydi.

Surxon-Sherobod botanik-geografik rayoni.

Bu hudud Panjoldi okrugining Bobotog' rayoni va Boysun, Ko'hitang botanik-geografik rayonlari bilan chegaradosh. Mintaqaning eng baland nuqtasi dengiz sathidan 800 metrgacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga oladi. Bu rayon Amudaryodan Sherobod shahrigacha cho'zilgan Kelif-Sherobod va Sherobod vodiysidan shimoli-sharqqa cho'zilgan Sherobod-Sariqamish past tog'lari juda ham emirilgan bo'lib, bo'r davrining gillari, paleogenning ohaktoshlari va dolomitlaridan tuzilgan.

Bobotog' tabiiy geografik rayoni

Bobotog'ni g'arbdan Surxondaryo, shimoldan Hisor, sharqdan Kofirnixon, janubdan esa Amudaryo vodiylari o'rab turadi. Biz okrugning sharqiy chegarasini shartli ravishda O'zbekistonning Tojikiston bilan bo'lgan davlat chegarasi orqali o'tkazamiz. Bobotog' okrugida bo'r va paleogen, neogen davr yotqiziqlari rivojlangan bo'lib, ular alp tektonikasi ta'sirida ko'tarilib qolgan.

Bobotog' respublikamizning tog'li okruglari ichida o'zining geologik tuzilishi va rivojlanish tarixi jihatidan eng yosh o'lka hisoblanadi. Bu yerdagi keksa tog' jinslari bo'r davriga xos bo'lib, tog'ning eng baland qismlari va zamini qizil gil, qizil qumtosh, qizil mergel, konglomerat hamda ohaktoshlardan iboratdir. Tog'larning quyi qismlarida esa paleogen va neogen davr oxaktoshlari, mergellari, qizil qumlari, va konglomeratlari uchraydi. Okrugning tog' etaklarida, daryo vodiylarida va botiqlarda antropogen davrning allyuvial-prolyuvial yotqiziqlari, lyosli qumloq, shag'al va boshqa yotqiziqlari ko'p uchraydi.

Bobotog' Hisor tog'idan Hisor vodiysi orqali ajralgan bo'lib, janubda to 37° 30' shimoliy kenglikgacha taxminan 100 km cho'zilgan. Tog'ning

janubiy qismi Tursuntog', Turtog' so'ngra Qakitog' deb atalib to Amudaryo vodiysigacha cho'zilib tushadi. Lekin okrug hududiga Bobotog'ning faqat o'zi kiradi, uning janubiy qismi Tojikistonga qaraydi.

Okrug hududida Bobotog'ning o'rtacha balandligi 1200-1500 m. Eng baland qismi esa 38⁰ shimoliy kenglikdagi Zarkosa cho'qqisidir (2290 m). Bobotog' bu cho'qqidan shimolga va janubga pasaya borib, 1900-1800 m ga tushib qoladi. Tog' assimetrik tuzilgan, sharqiy yonbag'ri tik bo'lib, Kofirnixon vodiysiga birdaniga pasayib tushadi. Aksincha g'arbiy yonbag'ri keng va uzun bo'lib, Surxondaryo okrugiga tomon asta-sekin pasayib boradi.

Okrug kuchli denuratsiya jarayoniga duchor bo'lgan, uni daryolar, soylar juda o'yib yuborgan. Buning ustiga karst jarayoni tog' rel'efini ancha murakkablashtirgan.

Bobotog'ning gipsli jinslar tarqalgan va oxak yotqiziqlaridan tashkil topgan sharqiy yonbag'rida karst jarayoni g'arbiy yonbag'riga nisbatan keng tarqalgan. Aksincha lyoss va lyossimon jinslardan iborat bo'lgan g'arbiy yonbag'rida esa suffozion rel'ef shakllari mavjud.

Bobotog' o'zining geomorfologik tuzilishi jihatidan ancha parchalangan pastog'li hudud hisoblansada, lekin uning o'q qismi vaqtli suvlar ishi natijasida vujudga kelgan chuqur kanonsimon vodiylar orqali bir necha qismlarga bo'lib yuborilgan. Buni ustiga Bobotog'ning shimoliy qismini baland joylariga yog'inning nisbatan ko'proq tushishi tufayli vujudga kelgan suvlar har xil yotqiziqlar va tuproqlarni yuvib ona jinslarni ochilib qolishiga sababchi bo'lgan.

Viloyatning iqlimi.

Surxondaryo viloyati g'arbdan, shimoldan va sharqdan o'rab turgan tog'lar yozda ham, qishda ham havo massalarining okrugga o'tishiga ancha to'sqinlik qiladi. Shuning uchun ham viloyat butun respublikamizdagi eng issiq o'lkadir (yillik o'rtacha harorati $+17^{\circ}$ S). Yozi quruq va jazirama issiq, qishi yumshoq va iliq keladi, shuning uchun ham subtropik o'simliklar o'sa oladi. Yanvarning o'rtacha harorati $+1^{\circ}$, $+4^{\circ}$ S bo'ladi. Lekin ba'zan qish oylari ancha sovib ketib, eng past harorat -20° , -27° S ga tushadi. Iyulning o'rtacha harorati $+28^{\circ}$, $+32^{\circ}$ S, eng yuqori harorat esa $+42$ $+48^{\circ}$ S daraja bo'ladi. Termiz shahrida yoz kunlarida harorat hatto $+50^{\circ}$ S gacha ko'tariladi.

Harorat $+5^{\circ}$ S dan yuqori bo'lgan kunlarning soni bir yilda 290 – 320 ga etadi. Vegetatsiya davrida haroratlar yig'indisi 5500° – 5960° bo'ladi.

Surxondaryo okrugida bahorda oxirgi sovuq tushishning o'rtacha muddati 2-15 martlarga, kuzgi birinchi sovuq tushishning o'rtacha muddati esa 20-25 oktyabrlarga to'g'ri kelib, sovuq bo'lmaydigan kunlar miqdori 227 -266 ga teng.

Viloyat tog'lar orasidagi berk botiqda joylashganligidan yog'in kam ($133 - 360$ mm). Yog'in miqdori hudud rel'efining tuzilishiga bog'liq bo'lib, janubi-g'arbdan shimoli-sharqqa tomon ko'payib boradi. Viloyatning janubi-g'arbiy tekislik qismida (Termiz) bir yilda 133 mm yog'in tushsa, shimoli-sharqiy qismida (Denov tumanida) 360 mm ga etadi. Yog'inning asosiy qismi bahor va qishda (88 %) yog'adi, yozda esa yog'in juda kam (2%) tushadi. Yog'inning bir qismi qor holida ham tushadi, lekin u uzoq saqlanmaydi. Qor viloyatda ba'zi yillari umuman

yog'maydi, ba'zi yillari esa 15 kundan 23 kungacha qor yog'ib, qalinligi 1-2 sm ga etib, 5-7 kun erimay turishi mumkin. Bunday qishlar kamdan kam bo'lishi mumkin. Hududda g'arbiy, janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy shamollar eng ko'p esadi. SHamollarning tezligi bir xil emas, o'rtacha tezligi sekundiga 2,6 m. Ammo ba'zan tezligi sekundiga 15 m dan oshadigan kuchli shamollar ham bo'lib turadi. Viloyat janubi-sharqiy qismining iqlimiga janubi-g'arbdan esuvchi quruq, chang-to'zonli "afg'on" shamoli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bu shamol soatlab, hatto sutkalab esib, voha hududidagi o'simliklarga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

SURXONDARYO VILOYATI FLORASINING

O'RGANILISH TARIXI

Janubi-G'arbiy Hisor, shu jumladan, Boysun tog'i va uning atrofidagi hududlarda olib borilgan ilmiy izlanishlar bir asrdan ortiq tarixga ega. Hudud o'simliklari to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar N.A. Maevga tegishli. U 1875 yili general gubernator K.P. Kaufman boshchiligida "Buxoro janubidagi tekisliklar" deb nomlangan ekspeditsiyada botanik sifatida ishtirok etgan. Tadqiqot ishlari 1875 yilning aprel oyida Samarqand viloyati atroflaridan boshlanadi. Taxta-Qaracha dovoni orqali, Kitob, G'uzor, Yakkabog', Qarshi, Tangi-Xaram, Darband, Sayrob, Sherobod, Eski-G'uzor yo'nalishlarida davom etadi. So'ngra ortga Loydagan, Bitau, G'uzor, Oqrobot, Darband, Boysun, Denau, Sho'rchi orqali Regar tomon yo'l olishadi va Vaxsh, Kulob, Qo'rg'ontepa orqali yana Boysunga kelishgan. Iyun oyining oxirida G'uzor orqali Katta va Kichik-O'radaryoga borishadi [Turgenov, 2016].

M. Kapyu 1881 yildan boshlab Bonvalo bilan birgalikda Markaziy Osiyo bo'ylab tadqiqotlar olib borgan va izlanishlari davomida ko'pgina gerbariy namunalari yig'ishgan. 1881 yilning 7-15 aprel kunlarida Sherobod va G'uzorda, 8-9 mayda Sayrob, 10 mayda SHO'rob atroflarida tadqiqotlar olib borishgan. So'ngra G'uzor tomonga qarab tadqiqotlarini davom ettirishgan. Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra hozirgi kunda ham Bonvalo va Kapyu tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining turli hududlaridan yig'ilgan gerbariy namunalari Parijda (R) saqlanmoqda [Lipskiy, 1905 (382-384-b.), Kurdyashev, 1941 (6-b.)]. Ular tomonidan BBGR hududi atroflaridan terilgan gerbariy namunalardan foydalangan holda V.I. Lipskiy 1910 yilda *Astragalus kelifi* Lipsky turini fanga kiritadi

[Lipskiy, AHP 1907, №26. 158-b.]. Ushbu tur ilk bor Kapyu tomonidan Janubi-G'arbiy Hisor xududidan terilgan (Kelif, 16 (28) III 1881, n^o342, Capus (P.). (Vasilchenko va Vasileva, 1985 (83-b.)).

1928-1930 yillar oralig'ida A.I. Vvedenskiy va V.P. Bochansev Denov va Boysun tumanlari atroflarida tadqiqotlar olib borishgan. Izlanishlar asosan Cho'lbair tog'i va uning atroflari (Sina, Vaxshivor), Obi-dara daryo havzasida, Boysun-Denov shaharlari atroflarida olib borishgan. Olimlar 3 yil davomida katta miqdorda gerbariy namunalarini to'plashgan [Butkov, 1938 (6- -b.)]. Keyinchalik yig'ilgan materiallardan foydalanilgan holda mazkur mintaqadan fan uchun bir nechta yangi turlarni kiritganlar: *Tulipa carinata* Vved. [Opr.sr. azii. 2tom. 1971, (318-b.)], *Tulipa orythioides* Vved. (1935), *Iris nicolai* (Vved.) Vved. (1935), *Iris parvula* (Vved.) T. Hall et Seisums (1935), *Allium tyttanthum* Vved. (1934), *A. dolichomischum* Vved. (1935), *A. crystallinum* Vved. (1935), *Ungernia victoris* Vved. et Artjush. (1935), *Eremurus iae* Vved. (1941), *Gagea delicatula* Vved. (1941), *G. gymnopoda* Vved. (1941), *Pedicularis inconspicua* Vved. (1955) va b. Undan tashqari A.I. Vvedenskiy va V.P. Bochansev tomonidan terilgan gerbariy namunalarini o'rgangan holda V.P. Drobov *Poa vvedenskyi* Drobow (1941 (538-b.)), O.V. Cherneva *Cousinia hoplophylla* Tscherneva (1959), P.N. Ovchinnikov *Ranunculus vvedenskyi* Ovcz. (1941), N.F. Goncharov *Astragalus subverticillatus* Gontsch. (1946), E.I. Korovin *Ferula tuberifera* Korovin (1947) singari turlarni fanga kiritganlar. TASH fondida saqlanayotgan va BBGR hududidan terilgan namunalarning asosiy qismi A.I. Vvedenskiy va V.P. Bochansevlar tomonidan terilgan.

Keyingi ish A.Ya.Butkovga tegishli. U 1934 yilda Boysun tog'idagi archazorlar va ulardagi o'simliklar qoplamini hamda hayvonot olamini o'rganish maqsadida tadqiqot ishlarini olib borgan. Izlanishlar natijasida 1938 yilda "Rastitelnost gor Xodja Gurgur-ata" nomli asarini monografiya ko'rinishida chop etgan. Bunda Xo'ja Gurgur-ota tog'i uchun 238 tur borligini qayd etgan.

E.M. Demurina 1934 yilda Markaziy Osiyodagi ayrim hududlarning o'simliklar qoplamini o'rganish maqsadida Cho'lba'ir, Xo'ja Gurgur-ota, Bel-Auti tog'larida ham tadqiqotlar olib borgan. 1939 yilda ushbu mintaqalardagi o'simliklar qoplami to'g'risidagi ma'lumotlar keltirgan.

1940-1941 yillar davomida L.I. Popova Boysun tog'i va Surxon-Sherobod past tekisliklarida o'simliklar qoplamini o'rganish maqsadida tadqiqotlar olib borgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 1951 yilga kelib "Особенности в поясом распределение растительности Юго-западных отрогов Гиссарского хребта (в пределах Байсунского района Сурхандарьинского области)" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. U tomonidan mazkur hudud uchun faqatgina 626 tur borligini qayd etadi. Olima 2 yil mobaynida 2000 dan ortiq gerbariy namunalari yig'ishga erishgan.

Mazkur mintaqaning endemizmiga bag'ishlangan ilk tadqiqot ishlari L.I.Vasileva va I.T.Vasilchenkolarga (1985) tegishlidir. Janubi-G'arbiy Hisor okrugi florasida 29 oila, 100 turkumga mansub, 203 tur endem va 60 turdagi subendem turlar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Endem va subendem turlarni rayonlar bo'yicha, balandlik mintaqalari va o'simliklar qoplami bo'yicha tahlil qilingan. Bu boradagi tadqiqotlarni F.O. Xasanov (1991) davom ettirib, Janubi-G'arbiy Hisor tog' tizmasi endem turlarining

tarkibi borasida batafsil ma'lumotlarini keltiradi. Bunga ko'ra mintaqa florasida 22 oila, 55 turkumga mansub 124 ta endem borligini qayd etgan.

M.A.Xolmurotov 2007 yilda "Boysun-Cho'lbaer tog'larining o'simliklar qoplami" mavzusida nomzadlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Tadqiqotchi 2004- 2007 yillar oralig'ida olib borgan izlanishlari davomida mazkur mintaqa o'simliklar qoplamida 11 tip, 16 ta formatsiya va 28 assotsiatsiyalar tarkibida 714 tur borligi haqida ma'lumotlar keltirgan.

Boysun Botanik Geografik rayoni florasini to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar ilk bor O.Turgenov (2016) tomonidan keltirilgan bo'lib, 89 oila, 523 turkumga mansub 1555 turni tashkil etadi. Izlanishlar davomida botanika fani uchun 3 ta yangi turlar: *Jurinea tschernevae* Tojibaev & Turginov, *Iris khassanovii* Tojibaev & Turginov, *Allium decoratum* Turginov & Tojibaev, O'zbekiston florasini uchun 16 ta qo'shimcha yangi turlar: *Astragalus varzobicus* Gontsch., *Chesneya crassipes* Boriss., *Ch. hissarica* Boriss., *Chondrilla gibbistrostris* Popov, *Cousinia pannosa* C.Winkl., *Consolida stocksiana* (Boiss.) Nevski, *Eremurus hissaricus* Vved., *Ferula tadshikororum* Pimenov, *Hedysarum cephalotes* Franch., *H. denticulatum* Regel et Schmalh., *Nepeta pamirensis* Franch., *Pedicularis sarawschanica* Regel, *Scrophularia pamiro-alaica* Gorschk., *Silene bucharica* Popov, *Taraxacum tadzhikororum* Ovcz. et Schischk., *Ventenata macra* (Steven) Balansa et Boiss. (= *Gaudinopsis macra* (Stev.) Eig) aniqlandi.

Hisor tizmasi uchun 15 tur: *Melissitus pamiricus* (Boriss.) Golosk., *Echinophora sibthorpiana* Guss., *Jurinea kokanica* Iljin, *Cousinia gontscharovii* Juz., *C. triceps* Kult., *C. podophylla* Tscherneva, *C. butkovii* Tscherneva, *Astragalus fedtschenkoana* Lipsky, *A. angrenii* Lipsky,

Allium kaufmanii Regel, *Scutellaria immaculata* Nevski ex Juzz., *Asperula trichodes* J.Gay & DC., *Draba huetii* Boiss., *Elaeosticta paniculata* (Korovin) Kljuykov et Pimenenov, *Onosma gmelinii* L'db. ilk bor aniqlanildi.

Ko'hitang tizmasining o'simliklar qoplami va floristik tarkibi ham bir qancha botaniklar tomonidan o'rganilgan.

Tizmaning o'simliklar tarkibi to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlar M.G. Popovga tegishli. U 1915 yilda ushbu hududning o'simliklarini o'rganish maqsadida ilmiy safar tashkil etadi va qimmatli gerbariy materiallarini to'playdi. 1923 yilda Ko'hitang tizmasining sharqiy yonbag'irliklarida M.G. Popov, B.A. Fedchenko boshchiligidagi bir guruh botaniklar hamda 1928 yilda E.G. Bobrov tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. 1931 yilda A.V. Yarmolenko ham bu hududda keng izlanishlar olib borgan hamda shu bilan birga gerbariy materiallari to'plagan.

1936 yilda N.A. Merkulovich tomonidan Boysun va Sherobod hududlarida keng ko'lamlı tadqiqotlar olib borilgan. Izlanishlar natijasi bo'lgan ilmiy asarlarida o'rganilgan hududlarning tabiiy-geografik xususiyatlari, o'simliklar qoplami va ularning tarqalishi hamda xo'jalikdagi ahamiyati haqidagi qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan.

Ko'hitang tizmasining g'arbiy yonbag'rida (Turkmaniston xududida) birinchilar qatoridagi eng yirik botanik izlanishlarni S.A. Nevskiy olib borgan. Uning ko'p yillik tadqiqotlarining natijasi 1937 yilda "Материалы к флоре Кугитанга и его предгорий" nomli yirik ilmiy maqolada aks ettiriladi. Unda muallif birinchi bo'lib Ko'hitang tizmasi florasining ro'yxatini keltiradi. Uning ma'lumotlariga ko'ra, Ko'hitang florasining tarkibi taxminan 800 turdan iborat bo'lib, shundan 588 turdagi o'simliklar

tadqiqotchi tomonidan terilgan va aniqlangan gerbariy ma'lumotlari asosida keltirilgan. Shuningdek, ilmiy manbada turlarning tarqalishi, hayotiy shakllari, ekologiyasi hamda birinchi bo'lib, tizma o'simliklarning tik balandlik mintaqalari bo'yicha tarqalishining sxemasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

S.A. Nevskiy tadqiqotlaridan keyin bu hudud ko'plab O'rta Osiyoning yirik botanik olimlari jumladan, P.N. Ovchinnikov, V.I. Zapryagaeva, V.P. Bochansev, R.V. Kamelin, I.V. Belolipov, A.Ya. Butkov, G.M. Proskuryakovalarning diqqatini o'ziga tortdi. Ular keltirgan ma'lumotlar Ko'hitang tizmasi va uning atrofidagi tizmalarda turli maqsadlarga qaratilgan botanik izlanishlarning rivojlanishiga asos bo'ldi.

1947 yilda E.P. Korovin Ko'hitang tizmasining Xodja-fil-ota bo'limidan *Apiaceae* oilasiga mansub yangi turni (*Libanotis nevskii* Korovin) topadi. Ko'hitang tizmasidan topilgan bu turni keyinchalik M.G. Pimenov, L.I. Sdobninalar (1973, 1975) o'z ishlarida *Seseli nevskii* (Korovin) Pimenov et Sdobnina comb. nov. nomi bilan keltirishgan.

1954 yilda L.B. Blinovskiy tomonidan nashr etilgan maqolada Ko'hitang tizmasidagi yovvoyi chilonjiyda o'simligining (*Ziziphus jujuba* Mill.) tarqalishi va bioekologiyasi haqida batafsil ma'lumotlar keltirgan.

Ko'hitang tizmasining florasidagi boshhoqli o'simliklarning tur tarkibiga N. CHopanov katta oydinlik kiritdi. U 1959 yilda "Конспект злаков флоры Туркмении" nomli asarini chop etdi. N. CHopanovning ma'lumotlari S.A. Nevskiy keltirgan ma'lumotlarni ancha boyitdi. Xususan, dastlabki manbada Ko'hitang tizmasida boshhoqdoshlarning 86 turi keltirilgan bo'lsa, N. CHopanov ularning tarkibi 110 turdagi o'simliklardan iborat ekanligini qayd qilib o'tgan.

E.P. Korovinning 1961-1962 yillarda nashrdan chiqqan mashhur “Растительность Средней Азии и Южного Казахстана” nomli monografiyasida Ko’hitang tizmasining tabiiy-geografik o’rniga alohida to’xtalib o’tadi. O’simliklar qoplaminig xususiyatlari va ular namoyon etadigan tabiiy qonuniyatlar asosida tizmani Janubiy Turkiston tog’ provinsiyasining Ko’xiston okrugi tarkibiga kiritadi hamda uning o’simliklar qoplami haqida ma’lumotlar berib o’tadi.

Tadqiq etilgan hudud Rossiya Botaniklar uyushmasining prezidenti, O’rta Osiyo florasining yirik bilimdoni R.V. Kamelinning diqqat markazida bo’lib kelgan. U 1973 yildagi nashrida Tog’li O’rta Osiyoda Ko’hitang tizmasining tutgan o’rniga baho beradi va uni Tog’li O’rta Osiyo provinsiyasining G’arbiy Hisor okrugi tarkibiga kiritadi. Aynan, u Ko’hitang tizmasining floristik xilma-xilligi masalasiga oydinlik kiritadi va S.A. Nevskiyning dastlabki ma’lumotlarini boyitadi.

R.V. Kamelin (1973) fikriga ko’ra, Ko’hitangda turlar tarkibining umumiy soni 1000 turdan kam emas va tizmaning g’arbiy qismidagi floristik xilma-xillikni 860 turdagi o’simliklar tashkil etadi. Keltirilgan ma’lumotlar alohida taksonomik birliklar misolida ham o’z ifodasini topadi. Masalan, *Brassicaceae* va *Caryophyllaceae* oilalari turlarining soni S.A. Nevskiy keltirgan ma’lumotlardan ancha ko’pligi ko’rsatilgan. Biroq, shunday bo’lsada R.V. Kamelin keltirgan ma’lumotlar tizma florasining baholanishi tarzida keltirilgan bo’lib, floraning konspekti ko’rinishida chop etilmagan va O’rta Osiyo tog’li florasining floragenezini ochib berishda namunaviy asos sifatida qo’llanilgan.

O’rta Osiyo tog’li florasining hududiy baholash ishlarini R.V. Kamelin keyinchalik ham davom ettirgan. 1990 yilda chop etilgan “Флора

Сырдарьинского Каратау” nomli kitobida Ko’hitang tizmasi uchun (Sherobod–Kelif past tekisligidan Suvsiz tog’ining pastki va o’rta qismi Turkmaniston hududidagi Oqbosh, Illak, Illikbosh hamda Tarqapchig’ay va Gaurdak tumanlarini o’z ichiga oladi. Umumiy maydoni 6700 km².) 92 oilaga mansub 545 turkum va 1435 tur o’simliklarni keltirgan. SHundan 119 tur o’simliklarni Ko’hitang tizmasining turli xil maqomdagi endemlari sifatida qayd qilib o’tgan.

G.M. Proskuryakova va N. B. Belyanina (1973, 1975) Ko’hitang tizmasining florasi tarkibiga qo’shimcha sifatida yana 32 tur o’simliklarni keltirgan.

1982 yilda I.G. Levichev Ko’hitang tizmasining sharqiy yonbag’rida joylashgan Qizilolma soyining yuqori qismi, dengiz sathidan 2900 m balandlikdan, qorga yaqin bo’lgan joydan *Gagea* turkumiga mansub yangi *Gagea nabievii* Levichev turini topadi va fanga kiritadi.

Tadqiq etilgan hududda olib borilgan geobotanik tadqiqotlardan eng salmoqlilaridan biri sifatida F.O. Xasanovning izlanishlarini keltirish mumkin. Tadqiqotchi tomonidan 1982-1987 yillar davomida tizmaning daraxt va butazorlari o’rganilgan. Bu ishlarida Ko’hitang tizmasining florasi bo’yicha qisqacha ocherk, shiblyak tipining asosiy formatsiyalari va ularning xalq xo’jaligidagi ahamiyati borasidagi qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Ko’hitang tizmasi doirasida shiblyak tipining floristik boyligi 55 oila, 269 turkumga mansub 578 tur o’simliklar bilan baholanishini keltirgan. Ushbu tadqiqot natijalari hozirgacha olib borilgan floristik va geobotanik izlanishlar orasida salohiyatli o’rin egallab kelmoqda.

1985-1986 yillarda F.O. Xasanov tomonidan *Acer pubescens* Franch. hamda *Sageretia laetevirens* (Kom.) Gontsch. turlarining Ko'hitang tizmasi o'simliklar qoplamida tutgan o'rni, tarqalish maydoni, ekologiyasi, formatsiya va assotsiyasi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Ko'hitang tizmasi o'simliklar qoplamining tik mintaqalar bo'ylab taqsimlanishiga bag'ishlangan yirik ilmiy maqola 1987 yilda R.V. Kamelin va F.O. Xasanovlar tomonidan chop etilgan. SHuningdek, F.O. Xasanov bu hududdan topilgan floristik yangiliklar muallifi sifatida ham fanga o'z hissasini qo'shgan. 1988 yilda I.I. Malsev bilan hammualliflikda Ko'hitang tizmasining shimoli-sharqiy qismi, ya'ni Bog'lidara bo'limidan *Allium* turkumiga oid (*Allium ecornutum* F.O. Khass. et I.I. Malzev) va 1991 yilda Kampirtepa bo'limi Machayli soyidan *Silene* turkumiga mansub (*Silene nataliae* F.O. Khass. et I.I. Malzev) yangi turlarni topishgan hamda bu turlar bo'yicha ma'lumotlar berib o'tishgan.

F.O. Xasanovning biz tadqiq etgan hudud uchun tegishli bo'lgan ilmiy asarlari qatoriga 1991 yilda chop etilgan va Janubi-G'arbiy Hisor tog' tizmasi endem o'simliklarining tur tarkibi borasida keltirgan batafsil ma'lumotlarini (22 oila, 55 turkumga mansub 124 ta endem turlar) ham kiritish zarur. Undagi ko'rsatkichlar Ko'hitang tizmasida tarqalgan endemlarni o'rganishda ahamiyatli bo'lib kelmoqda.

1988 yilda V.V. Nikitin va A.M. Geldixanov tomonidan chop etilgan "Определитель растений Туркменистана" nomli monografiyasida ham Ko'hitang tizmasida tarqalgan o'simlik turlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

O'zFA akademigi K.SH.Tojibaev rahbarligida turli yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari ham tahsinga loyiqdir. 2010 yildan to

bugungi kungacha O'rta Osiyo va O'zbekiston florasining taksonomik tarkibi, geografik tarqalishi, populyasiyasi, kamayib ketish sabablari, muhofaza choralari shuningdek, fan uchun yangi turlarning topilishi, kamyob va relik turlarning tarqalish xarita-sxemasi, FLORUZ.UZ nomli yagona ma'lumotlar bazasining shakllantirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

2010 yilda Ibragimov tomonidan Ko'hitang tizmasining sharqiy yonbag'rida joylashgan Surxon qo'riqxonasi florasining tarkibi o'rganilgan bo'lib, 77 oila, 372 turkumga mansub 743 turlardan tashkil topishi aniqlandi. Qo'riqxonada florasi taksonomiyasi, arealogiyasi, biomorfologiyasi, ekologiyasi bo'yicha tahlil qilindi va tik mintaqalar bo'ylab taqsimlanishi o'rganildi. Surxon qo'riqxonasining florasida manzarali o'simliklarning 109 turi (14,67%) o'sishi aniqlandi. Ularning asosiy qismini *Alliaceae*, *Iridaceae*, *Liliaceae*, *Asphodelaceae* oilalari vakillari tashkil etadi.

Bundan tashqari viloyat florasini haqida qo'shimcha ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobi, "Флора Узбекистана" [99], "Определитель растений Средней Азии" [59], "Флора Туркмении" [98], "Флора Таджикской ССР" [97] va "Флора СССР" [96] monografiyalarida ham keltirilgan.

SURXONDARYODA YOVOYI HOLDA TARQALGAN MANZARALI O'SIMLIKLAR

Oila: *Polypodiaceae* – Qirqquloqdoshlar – Настоящие папоротники

Bu oila vakillari yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, tog' va adirlardagi soya-salqin hamda zax yerlarda o'sadi. Yer ustki poyasiz o'simlik. Ildizpoyasidan chiqqan barglari, ancha yirik 2-3 karra patsimon bo'lingan. Sporalari barglarining orqasida yoki qirralarida joylashgan soruslarning ichidagi sporangiylarda yetiladi.

Turkum: *Adiantum* L. [1] Tur: *Adiantum capillus-veneris* L – Zuhrasoch suvsumbul – Адриантум венерин волос

Qisqacha morfologiyasi: Bargining uzunligi 10-40 sm, keng nashtarsimon bo'lib, ikki-uch marta patsimon bo'lingan. Barg o'qi va bandlari qora-qo'ng'ir rangli, tuksiz, yaltiroq. Barglari och yashil rangli, tuksiz bo'lib, ingichka barg bandida joylashgan. Barg yaprog'ining cheti notekis. Barg o'qining o'rtasidagi barglar qilichsimon, uchki qismidagilari esa, yumaloq, panjasimon bo'lingan. Sporalari soruslarda etiladi.



Fenologiyasi: Iyun-avgust oylarida spora hosil qiladi.

Areali: Barcha tog'li rayonlarda tarqalgan.

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta va pastki qismidagi qoyalarning yorig'ida, daryolarning qirg'og'ida, g'orlarda o'sadi.

Oila: *Cupressaceae* – Archadoshlar – Кипарисовые

Oila vakillari bir yoki ikki uyli daraxt va butalardan iborat, yog'ochi smolali, doimiy yashil daraxt bo'lib, har ikkala yarim sharda ham tarqalgan. Novdalari bo'g'imlarga bo'linmagan. Barglari yashil tangacha shaklida, uzunligi 1-2 mm, novdada qarama-qarshi yoki halqa holida zich joylashgan. Mevasi sharsimon bo'lib, qubba meva deb ataladi.

**Turkum: *Juniperus L.* [2]Tur: *Juniperus seravschanica Kom* –
*Zarafshon archasi – Можжевельник зеравшанский***

Qisqacha morfologiyasi: Ikki uyli, uzunligi 20 m gacha yetadigan daraxt. Po'stlog'i qizg'ish rangda. Shox-shabbasi qalin, oval yoki konussimon. Yosh qubbalari yashil rangda, yetilganlari to'q jigarrang bo'ladi. Qubbalarining uzunligi 9-12 mm, qisqa bandli, 2-3 urug'li. Urug'larining uzunligi 5-7 mm bo'lib, to'q jigarrangda.



Fenologiyasi: Aprel-iyunda gullaydi, kelasi yilning oktabr-dekabr oylarida mevasi yetiladi.

Areali: Barcha tog'li rayonlarda tarqalgan.

Ekologiyasi: Tog'larning pastki va o'rta qismlarida, dengiz sathidan 1000-2500 m balandlikdagi toshli, shag'alli va mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

**[3]Tur: *Juniperus turkestanica* Komarov – Turkiston archasi –
Можжевельник туркестанский**

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 18 metrga yetadigan ikki uyli daraxt yoki yerbag'irlab o'suvchi bo'yi 2 m atrofidagi butasimon formalari ham mavjud. Shox-shabbasi qalin. Po'stlog'i kulrang. Barglari 2 mm atrofida, och yashil rangda. Qubbasimon mevasining uzunligi 10-15 mm, yosh qubbalari yashil rangda, yetilganlari to'q jigarrang bo'lib, yozda qora-ko'kish rangda bo'ladi. Urug'larining uzunligi 6-10 mm, cho'ziq yoki sharsimon.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullaydi, kelasi yilning sentabr-noyabr oylarida mevasi yetiladi.

Areali: Barcha baland tog'li rayonlarda tarqalgan.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismlarida, dengiz sathidan 2000-3000 m balandliklardagi toshli, shag'alli va mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

**[4]Tur: *Juniperus semiglobosa* Regel – Yarimsharsimon archa,
Saur archa – Можжевельник полушаровидный**

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 10 m yetadigan ikki uyli daraxt yoki yerbag'irlab o'suvchi bo'yi 2 m atrofidagi butasimon hayotiy shakllari ham mavjud. Shox-shabbasi siyrakroq, ko'pincha pastga qarab egilgan. Po'stlog'i kul tusli jigarrang. Barglari rombsimon, biroz o'tkir uchli bo'lib uzunligi 1-1,5mm atrofida. Qubbasimon mevasi 6-7 mm, yosh qubbalari yashil rangda, yetilganlari qora rangda bo'ladi. Urug'lari 5 mm atrofida.



Fenologiyasi: May-iyunda gullaydi kelasi yilning sentabr-oktabr oylarida mevasi yetiladi.

Areali: Barcha baland tog'li rayonlarda tarqalgan.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismlarida, dengiz sathidan 1500-2700 m balandliklardagi toshli, shag'alli va mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

Oila: *Ranunculaceae*–*Ayiqtovondoshlar*– *Лютиковые*

Oila vakillari asosan shimoliy yarim sharning sovuq va mo'tadil iqlim mintaqalarida keng tarqalgan, ayrimlari tropik mintaqalarda ham uchraydi. Bu oilaga kiruvchi o'simliklarning barglari oddiy, yonbargsiz,

poyada ketma-ket yoki qarama-qarshi joylashgan. Gullari ikki jinsli, aktinomorf va zigomorf. Hayotiy shakllariga ko'ra asosan ko'p yillik o'tlar, buta va bir yillik o'simliklar ham uchraydi. Oilaning 5 ta tur o'simligi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Anemone L.* [5] **Tur:** *Anemone baissunensis Juz.* –

Boysun po'fanagi – Ветреница байсунская

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 5-20 sm oralig'ida, oddiy, tuksiz, pastki qismi siyrak oq, yotiq tukli. Ildiz oldi barglarining bandi tuksiz, yaprog'i uchga bo'lingan, yon bargchalari deyarli bandsiz yoki juda qisqa bandli. Gulpoyasi 1-2 ta qalin, qayrilgan tukli. Gullarining kengligi 2-4 sm, sariq rangli, tashqi tomoni ba'zan qizg'ish rangda, yuqorisi qirrali. Gulqo'rg'on bargchalari keng ellipssimon yoki teskari tuxumsimon, tashqi tomoni qalin, yotiq, oq tukli. Changdoni nashtarsimon sariq, changchi iplari ham sariq rangli. Urug'chisi qora rangda. Mevasining uzunligi 3 mm atrofida.



Fenologiyasi: Mart oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Sangardak-To'palang) Janubiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki hamda tog' oldi hududlaridagi toshli, shag'alli, ochiq ola jinsli yerlarda o'sadi.

**[6]Tur: *Anemone bucharica* (Regel) Finet & Gagnep. – Buxoro
ro'fanagi –Ветреница бухарская**

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 5-30 sm gacha, oddiy, tuksiz yoki yuqori qismi siyrak oq tuk bilan qoplangan. Ildizoldi barglari uzun bandli, uchga bo'lingan, yon tomonidagilari deyarli bandsiz, oraliq barglari ko'rinarli bandli, yon bo'lagi ikkiga bo'lingan, oraliq bo'lagi uchga bo'lingan. Gullarining kengligi 3 sm, qizil bo'lib, o'troq. Uzun, tig'iz, tukli gulo'rnida joylashgan. Gulqo'rg'on bargchalari teskari tuxumsimon, ichkarisi tuksiz, tashqarisi qalin, yotiq tukli. Mevalari 3-4 mm uzunlikda.



Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Bobotog' tizmasi). Janubiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki hamda tog' oldi hududlaridagi toshli, shag'alli, ochiq ola jinsli yerlarda o'sadi.

**[7]Tur: *Anemone protracta* (Ulbr.) Juz. – CHO'zinchoq po'fanak
– Ветреница вытянутая**

Qisqacha morfologiyasi:

Poyasining uzunligi 6-45 sm, yumaloq, oddiy, oq rangli. Ildiz oldi barglari uzun tukli. Poyadagi barglari yuraksimon-tuxumsimon, ustki tomoni deyarli tuksiz yoki tarqoq tukli, ostki tomoni qalin, tig'iz tukli, keng rombsimon, yondagilari bandsiz. Gulpoyasi odatda oq tukli. Gullari yirik 2-3 sm oq rangli. Gulqo'rg'on bargchalari



yumaloq, teskari tuxumsimon yoki keng ellipssimon, ko'rinarli tomirli. Urug'larining uzunligi 5-6 mm, keng ellipssimon, tuksiz. Ustunchasi egilgan, uzunligi 2 mm.

Fenologiyasi: Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-avgust oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Qashqadaryo, Toshkent, Farg'ona, Qashqadaryo, Jizzax.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi mayda tuproqli, toshli yonbag'irlarda o'sadi.

Turkum: *Aquilegia L.* [8] **Tur:** *Aquilegia vicaria Nevski* –
Almashuvchi suvyig'ar – Водосбор замещающий

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 40-70 sm, tukli, tik o'suvchi, sershox. Ildiz oldi barglari 2-3 ta bo'lib, 2-3 bo'lakli, uzun bandli, bandlari tukli, kengaygan, plastinkasidan 4 marta uzun. Poyadagi barglari qisqa bandli, eng yuqoridagilari bandsiz bo'lib, ildiz oldi barglaridan ajralib turadi. Gulbandining uzunligi 3-4 sm, tig'iz tukli. Gullarining kengligi 3,5-4 sm, asosan yakka gulli. Gultoji sariq, pixli, to'g'ri yoki bir nechtasi qayrilgan, ingichka, uzunligi 2-2,5 sm. Urug'lari qoramtir-jigarrang bo'lib, uzunligi 1 mm.



Fenologiyasi: Iyun–iyul oylarida gullab mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang tizmalari va Sherobod vodiysi). Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, nam yerlarda, qoyalarda o'sadi.

Turkum: *Delphinium L.* [9] **Tur:** *Delphinium semibarbatum*

Bien. ex Boiss. – Yarimtukli isfarak – Живокость полубородатая

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 35-70 sm, oddiy yoki tarvaqaylagan, tuksiz yoki qisqa tukli. Ildiz oldi barglari uzun bandli, qisqa nashtarsimon, tuksiz yoki siyrak tuklangan. Gullari och sariq rangli. Guloldi bargchalarining uzunligi 8-15 mm, nashtarsimon, tuksiz, bir nechta sariq rangli tuklari bor. Gultoj barglaring shakli teskari tuxumsimon

bo'lib, uzunligi 1,5 sm, kengligi 0,8 sm. Gul poyasi tuksiz. Pixlarining uchi qayrilgan. Urug'lari kichik tangachasimon qobiq bilan qoplangan.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Bobotog' tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki qismidagi va tog' oldi tekisliklaridagi mayda tuproqli, ochiq ola jinsli, toshli, shag'alli, gilli yerlarda o'sadi.



Turkum: *Aconitum* L. [10] **Tur:** *Aconitum seravschanicum* Steinb. – **Zarafshon parpisi – Аконит зеравшанский**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi 4-12 ta, qalin duksimon tuganaklardan iborat. Poyasining uzunligi 40-60 sm, tik o'suvchi, oddiy, yumaloq. Poyasining pastki qismi tuksiz, yuqorisi siyrak tukli. Ildiz oldi barglari 4-10 ta, uzunligi 8-15 sm, plastinkasi tuksiz, yumaloq, pastki tomoni ko'rinarli tomirli. Barglari 5-7 bo'lakka bo'lingan. Gullari shingil



to'pgulda yig'ilgan, och binafsha rangli, sariq yoki qoramtir sariq tomirli. Gulbandi zich, qisqa tukli, uzunligi 2-3 sm. Pastki gulqo'rg'on barglari nashtarsimon, yuqoridagilari yumaloq-teskari tuxumsimon.

Fenologiyasi: Iyul oyida gullab, avgust oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Sangardak-To'palang), Farg'ona, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli, nam yerlarda, buloqlar atrofida o'sadi.

Turkum: *Clematis L.*

[11]Tur: *Clematis orientalis L – Sharq ilono'ti, Понпечак – Ломонос восточный*

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi uzun, tikanlar bilan qoplangan, barglari bandli, ba'zan qirqilgan, qalin qisqa tukli yoki deyarli tuksiz.

Gulkosachasi tuxumsimon-nashtarsimon, uchli, har ikki tomoni ham qisqa tukli, uzunligi 13-25 mm. Changchi iplarining tubi kengaygan, tukli. Gullari sariq yoki sariq-yashil rangda, tashqarisi ba'zan qizg'ish, barg qo'ltig'ida joylashgan.



Mevasining uzunligi 2 mm ga yaqin, tuklangan.

Fenologiyasi: Iyun-sentabr oylarida gullab, iyul-oktabrda mevalaydi.

Areali: O'zbekistonning barcha tog'li hududlarida.

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi yalangliklarda o'sadi.

Oila: *Paeoniaceae* – Sallaguldoshlar - Пионовые

Bu oila ayiqtovondoshlar oilasidan, mustaqil oila sifatida ajratilgan.

Turkum: *Paeonia* L. [12]Tur: *Paeonia hybrida* Pall – Duragay qizil sallagul, Yovvoyi sallagul, Gulisalim – Пион степной

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 25-75 sm oralig'idagi xayotiy shakliga ko'ra ko'p yillik o'simlik. Ildizi urchuqsimon yo'g'onlashgan. Barglari bandli, ikki karra uch bo'lakli, bo'laklari qalami-nashtarsimon shaklda. Gullari yirik diametri 6-10 sm. Mevasi tarvaqaylagan, qalin tukli. Urug'i yaltiroq, qora rangli.



Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda mevasi etiladi.

Areali: Surxondaryo (Sangardak-To'palang). Toshkent, Samarqand, Qashqadaryo, Jizzax.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda, qoyalarda, daraxtlarning tagida o'sadi.

Oila: *Aceraceae* – Zarangdoshlar – Кленовые

Bu oilaga mansub o'simliklarning barglari oddiy yoki murakkab bo'lib, qarama-qarshi joylashgan. Gullari asosan bir jinsli. Mevasi ikki qanotchali uchma meva.

**Turkum: *Acer L.* [13]Tur: *Acer pubescens Franch* – Tukli
zarang – Клен пушистый**

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 4-8 metr keladigan daraxt xayotiy shakliga mansub bo'lib, po'stlog'i och kulrang tusda. Yosh novdalari dastlab qizg'ish-qo'ng'ir rangda bo'ladi, keyinchalik och kulrang tusga kiradi, tuksiz yoki qisqa tukli. Kurtaklari kichik, keng tuxumsimon, qizg'ish-qo'ng'ir rangli. Barglari deyarli yumaloq, uzunligi 1,5-6 sm, eni 2-8 sm, uch bo'lakli ba'zan besh bo'lakli. Barglarining ustki tomoni charmsimon, yashil rangli, tuksiz yoki siyrak tukli, ostki tomoni zich qisqa tukli, tomirlari bo'rtib chiqqan. Gullari kichik, kam gulli, ro'vaksimon to'pgulda yig'ilgan, yashil-sarg'ish rangli bo'lib, shoxlarining uchida joylashgan. Gulkosachasining uzunligi 4 mm atrofida, tuxumsimon shaklida. Gultoji teskari tuxumsimon, tuksiz, uzun. Changchilari gultojidandan ikki marta uzun. Tugunchasi tuksiz.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo: (Boysun, Ko'hitang, Bobotog'), Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori hamda pastki qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli yerlarda va daryo havzalarida tarqalgan.

[14]Tur: Acer semenovii Regel & Herder – Semenov zarangi –
Клен Семенова

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 10 metrga yetadigan xayotiy shakli

daraxt bo'lib, po'stlog'i kulrang tusda. Yosh novdalari yaltiroq, tuksiz, qizg'ish-qo'ng'ir rangli. Kurtaklari kichik konussimon, qo'ng'ir rangli. Barglarining uzunligi 5-7 sm gacha yetadi, eni 4 sm, ustki tomoni to'q yashil, pastki tomoni yashil



rangli, tuksiz yoki barg tomirlari yakka tukli. Barglarining shakli tuxumsimon bo'lib, asosi yuraksimon uch bo'lakli. Gullari oqish, siyrak ro'vak to'pgulda joylashgan. Gulbandlari tukli. Gultoji gulkosachasidan uzun. Tugunchasi zich tukli. Changchilar gultojibargidan uzun. Mevasi qanotchali uzunligi 3,5 sm tuksiz.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, avgust-sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun), Toshkent, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori hamda pastki qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli va daryo havzalarida tarqalgan.

[15]Tur: *Acer turkestanicum* Pax – Turkiston zarangi – Клен туркестанский

Qisqacha morfologiyasi: Balandligi 12-15 m keladigan, kulrang po'stloqli daraxt. Yosh novdalari qizg'ish-qo'ng'ir rangda, vaqt o'tishi bilan qo'ng'ir-kulrang tusga kiradi, tuksiz. Barglarining uzunligi 9 sm, eni 13 sm, 5-7 bo'lakli, charmsimon, ustki tomoni och yashil rangli, tuksiz ba'zan siyrak tukli. Ostki tomoni yashil rangli, qisqa tukli va bo'rtib chiqqan tomirli. Barglarining asosi keng yuraksimon yoki yumaloq, barg bo'laklari qilichsimon yoki keng tuxumsimon, yaxlit yoki o'rta bo'lagi ikki tishli, chetdagilari bir tishli. Gullari siyrak ro'vak to'pgulda joylashgan, kengligi 8 mm. Gulbandi tuksiz. Gulkosachasi ovalsimon-tuxumsimon. Gultoji oq rangda. Tugunchasi tuksiz. Qanotchasi yirik uzunligi 5 sm, yashil-sarg'ish, yuqori qismi kengaygan 2 sm to'mtoq.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullaydi, avgust-sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog'), Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori hamda pastki qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli va daryo havzalarida tarqalgan.

Oila: Rosaceae – Ranodoshlar – Розоцветные

Bu oila vakillari yer yuzida keng tarqalgan bo'lib, daraxt, buta, yarim buta, o't o'simliklar va lianalar shaklida tarqalgan. Gullari aktinomorf yoki zigomorf. Mevalari rezavor, yong'oq, soxta meva, bargak. Barglari yonbargchali. Oilaning 1 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Cerasus Mill.* [16] **Tur:** *Cerasus amygdaliflora Nevski – Bodomgulli gilos – Вишня миндалецветная*

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 5-20 sm ga yetadigan, yostiqsimon buta. Shoxlari qisqa, g'uj. Po'stlog'i qo'ng'ir-kulrang rangdagi qobiq bilan o'ralgan. Yosh novdalari qisqa, ingichka bo'lib, qisqa tukli. Bir yillik novdalari tuksiz, kulrang-sarg'ish rangli. Barglari teskari tuxumsimon yoki tuxumsimon, elipssimon, uzunligi 3-7 mm, eni 2-3,5 mm.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi shag'alli, toshli qoyalarda o'sadi.

Turkum: *Pyrus L.* [17] **Tur:** *Pyrus korshinskyi Litv – Korjinskiy noki – Груша Коржинского*

Qisqacha morfologiyasi:

Sharsimon yoki ovalsimon daraxt, tikansiz, to'mtoq kurtakli, kurtagining tangachalari zich tukli. Bir yillik novdalari zich oqish tukli, ikki yillik novdalari esa qo'ng'ir-kulrang. Barglari nashtarsimon yoki uzun nashtarsimon,



tilsimon, uzunligi 5-10 sm, asosi yumaloq. Yosh barglari oqish, zich tukli, vaqt o'tgan sari tuklari yo'qoladi, tomirlarida saqlanib qolishi mumkin. Gullarining kengligi 2-2,5 sm, gultojbargi uzun ovalsimon. Mevasi yirik, noksimon, yashil, yashil-sarg'ish rangda.

Fenologiyasi: May oyida gullab, avgust-sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va pastki qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli yerlarda va daryolarda o'sadi.

[18]Tur: *Pyrus regellii Rehd – Regel noki, Ayiqmurut – Груша Регеля*

Qisqacha morfologiyasi: Hayotiy shakli buta, yoki daraxtsimon shoxlari siyrak va uzun. Shoxlari ingichka tikanli, kurtaklari esa tuksiz. Poyasi qizg'ish-qo'ng'ir rangda. Barglari tuksiz yaltiroq, charmsimon, patsimon kesilgan, bo'laklari nashtarsimon, barg bandi tuksiz, ingichka. Gullarining kengligi 2-2,5 sm, gulkosachasi tukli, gultojbarglari uzun,

ensiz nashtarsimon. Mevasi noksimon, yoki sharsimon bo'lib, bir tekisda yashil-sarg'ish rangda.

Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, avgust-sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.



Turkum: *Rubus L.* [19] **Tur:** *Rubus caesius L* – **Ko'kimtir
maymunjon – Ежевика сизая**

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 50-150 sm keladigan, bir yillik novdalari yoysimon qayrilgan, silindrsimon, ko'kimtir g'uborli. Tikanlari ko'p, bir xil, kichik. Barglari uch bo'lakli, yonbarglari lansetsimon, bandlari tukli, dag'al va noto'g'ri tishli, tuxumsimon, rombsimon shaklda, o'tkir tishli. Gulpoyasi shoxlangan, kosachabarglari uzun va ingichka. Gulkosachabarglari tuxumsimon-lansetsimon, yotiq tukli. Tugunchasi tuksiz.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)



Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, o'rta va pastki qismlaridagi mayda toshli, shag'alli yerlarda va daryo bo'ylaridagi toqayzorlarda o'sadi.

Turkum: *Rosa L.* [20] **Tur:** *Rosa beggeriana Schrenk – Begger namatagi – Шиповник Беггера*

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 1-2,5 metr keladigan buta. Poyasi tikanlar bilan qoplangan. Po'stlog'i qalin, shoxlari jigarrang-qo'ng'ir rangli, yosh novdalari yashil yoki yashil-sarg'ish tusli. Tikanlari barglari yonida joylashgan, yakka-yakka, uzunligi 5-7 mm, ingichka va uchi qayrilgan.



Pastki qismidagi barglari och yashil, uzunchoq tuxumsimon- tuxumsimon, uzunligi 10-30 mm, kengligi 7-17 mm, yuqorisi siyrak, pastki qismi qalin, kalta tukli. Yonbargchalarining uzunligi 10-13 mm. Gullari ko'p sonli. Gulbandining uzunligi 5-12 mm. Yonbarglari tuxumsimon-lansetsimon yoki tuxumsimon. Gulkosachabarglarining uzunligi 13-15 mm, qalami-nashtarsimon, o'tkir uchli.

Fenologiyasi: May-avgust oylarida gullab, iyul-oktabr oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta, pastki va tog'oldi hududlaridagi daryo vodiylarida o'sadi.

[21]Tur: *Rosa canina* L – Itburun namatak – Шиповник собачий

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 3 metr keladigan, yo'g'on, tik, kam shoxli buta. Ildizi va eski shoxlarining rangi qo'ng'ir-qizg'ish, yosh novdalari esa yashil tusli. Tikanlari 5-10 mm, kengaygan uchburchak shaklda. Barglari yashil, ba'zan pastki qismi ko'kimtir rangda, yirik, (3)-5-7 ta, uzunligi 15-50 mm, kengligi 7-25 mm, uzunchoq tuxumsimon yoki ellipssimon, har ikki tomoni tuksiz yoki pastki tomoni siyrak tukli. Yonbarglari yirik, uzunligi 2-3 sm, kengligi 3-9 mm. Gulkosachasi uchburchak. Uzunligi 2-3 sm, har ikki tomondan tuklangan. Gultoji qizil yoki oq rangli, diametri 4-6 sm.



Fenologiyasi: May-iyulda gullab, iyul-oktabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta va pastki qismidagi mayda toshli, shag'alli archazorlarda o'sadi.

Oila: Vitaceae–Tokdoshlar– Виноградовые

Oilaning 1 ta tur o'simligi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Ampelopsis Michx* [22] **Tur:** *Ampelopsis aegiophylla*
(Bunge) Planch. – Terakbarg ampelopsis, Liftok – Виноградовник
ТОПОЛЕЛИСТНЫЙ

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi o'ralib o'suvchi buta hayotiy shakliga mansub. Poyasi tuksiz, silliq. Barg bandining uzunligi 2-6 sm atrofida. Barg yaprog'i tuxumsimon uch qirrali, uzunligi 4-10 smgacha yetadi, tubi ponasimon, uchi esa o'tkirlashgan, cheti yirik tishsimon bo'laklarga bo'lingan, yosh barglarining ikki tomoni ham tukli, vaqt o'tishi bilan tuksizlanib boradi. Mevasi qora rangda.



Fenologiyasi: Iyun oyida gullab avgustda mevasi yetiladi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta va pastki qismidagi toshli yonbag'irlarda, daryo bo'ylarida o'sadi.

Oila: Fabaceae – Burchoqdoshlar – Бобовые

Bu oila yer sharining hamma quruqlik mintaqalarida uchraydi. Hayotiy shakllariga ko'ra bir, ikki, ko'p yilliklar va daraxt, buta, yarim buta o'simliklardan iborat. Oila vakillarining ildiz tizimida tugunak bakteriyalar faoliyat kechiradi. Barglari murakkab yoki oddiy, doim yonbargchali. Gullari zigomorf. Changchilari (9)+1 ko'rinishda bo'ladi.

Oilaning 53 ta tur o'simligi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Astragalus L.* [23] **Tur:** *Astragalus acormosus* Basil –
Poyasiz astragal – Астрагал бесстебельный

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi baquvvat, qirrali, jo'yakli, oddiy, tuksiz bo'lib, pastki qismi bargsiz. Barglarinig uzunligi 15-16 sm, bandi esa 5-10 sm. Barg o'qida 2-4 juft tuxumsimon yoki cho'ziq bargchalar joylashgan. Bargchalarining uzunligi esa 4-8 sm atrofida. Barglarining ikki tomoni ham mayin yotiq tukli. Gulpoyasining uzunligi 10-20 sm atrofida, qisqa hurpaygan tukli.



Shingilining uzunligi 8-15 sm, ko'p gulli, gulbandining uzunligi 2 mm. Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon, uzunligi 11-13 mm. Gultoji sariq rangda bo'lib, ko'pincha bayroqchasi qizg'ish bo'ladi. Dukkagi egilgan bo'lib, uzunligi 22-28 mm, qora qisqa, uzun oq tukli. Urug'lari cho'ziq ovalsimon, uzunligi 5 mm, qo'ng'ir rangli.

Fenologiyasi: May-iyulda gulaydi, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasida)

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarida o'sadi.

[24]Tur: *Astragalus eximius* Bunge – Ajoyib astragal –

Астрагал превосходный

Qisqacha morfologiyasi: Balandligi 55-90 sm keladigan, mayin zich tuklangan, ko'p yillik o'simlik. Poyasi oddiy tik o'suvchi. Barglarining uzunligi 20-25 sm, barg bandi juda qisqa. Barg o'qida 7-9 juft, cho'ziq tuxumsimon, 3-6 sm keladigan bargchalar joylashgan. Barglarining ikki tomoni ham qalin mayin tuklar bilan qoplangan. Gul poyasining uzunligi 4-10 sm, mustahkam, mayin tukli. To'pguli sharsimon, kengligi 4-6 sm.



Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon bo'lib uzunligi 2,5-3 sm. Gultojbargi sariq rangda. Dukkagi ellipssimon, uzunligi 8-10 mm, yarim yotiq, mayin, oqish tukli. Urug'lari ovalsimon 3,5 mm atrofida, qo'ng'ir yashil rangda.

Fenologiyasi: May-iyunda gullab, iyun-iyulda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning pastki va old qismlaridagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yonbag'irlarda o'sadi.

[25]Tur: *Astragalus globiceps* Bunge – Yumaloqbosh astragal –

Астрагал шароголовый

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi oddiy, tik o'suvchi, biroz qirrali, mayda jo'yakli, uzunligi 50-65 sm. Barglarinig uzunligi 20-27 sm, bandi juda qisqa bargchalari deyarli o'qda joylashganday. Bargchalari 18-24 juft

keng ovalsimon yoki cho'ziq, uzunligi 20-25 mm, ustki tomoni tuksiz yoki siyrak tukli, ostki tomoni zich tukli. Gulpoyasining uzunligi 6-8 mm, oq tukli. To'pguli sharsimon kengligi 5-6 sm. Gulkosachasi qo'ng'iroqsimon,



uzunligi 18-26 mm, zich oqish, mayin tukli. Gultojbargi oqish sariq rangda. Dukkagi ellipssimon, 5-8 mm uzunlikda, uzun oq tukli.

Fenologiyasi: May-iyunda gullab, iyun-iyulda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

**[26]Tur: *Astragalus kulabensis* Lipsky – Kulob astragali –
Астрагал кулябский**

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi tik o'suvchi, uzunligi 25-80 sm, oddiy, shoxlangan, biroz qirrali, zich hurpaygan tukli. Barglarining uzunligi 9-15 sm, barg bandi juda qisqa. Bargchalari 15-20 juft, cho'ziq ellipsimon, uzunligi 10-18 mm, ikki tomoni ham mayin tukli. To'pguli sharsimon kengligi 4-5 sm, gulbandsiz yoko qisqa gulbandli. Gulkosachasi keng naysimon, oqish, yarim yotiq zich tukli. Gultojbargi oqish sariq rangda. Dukkagi notekis ellipssimon, yumshoq, oqish, uzun tukli.



Urug'lari ovalsimon, silliq, qo'ng'ir rangda, kichkina qora nuqtali.

Fenologiyasi: May-iyulda gullab, iyun-avgusda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Bobotog' tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va old qismlaridagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yonbag'irlarda o'sadi.

[27]Tur: *Astragalus sieversianus* Pall – Sivers astragali, paxtak, devona pufagi – Астрагал Сиверса

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yi 60-150 sm, poyasi oddiy, jo'yakli, zich hurpaygan tukli. Barglarining uzunligi 15-30 sm. Barg o'qida 8-14 juft nashtarsimon yoki ellipssimon

bargchalar qisqa band orqali o'rnashgan, bargchalarining uzunligi 3.5-5 sm bo'lib, ustki tomoni tuksiz, ostki tomoni esa tukli. To'pguli shingil, 3-5 gulli. Gulkosachasi naysimon, uzunligi



18-22 mm, zich hurpaygan tukli. Gultoqi oqish sariq rangda. Dukkagi bandsiz tuxumsimon 2-3 sm. Urug'lari buyraksimon, uzunligi 4-7 mm, qo'ng'ir rangli, deyarli silliq.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullaydi, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va old qismlaridagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yonbag'irlarda va bo'z tuproqli yerlarda o'sadi.

[28]Tur: *Hedysarum magnificentum* Kudr - tizma tangao't –

Копеечник великолепный

Qisqacha morfologiyasi: Poyasining uzunligi 50 sm gacha bo'lib, tuksiz, jo'yakli, siyrak shoxlangan, och yashil rangli ko'p yillik o't. Barglarining uzunligi 10-20 sm, uchbargchali yoki 2 juft bargchalardan tashkil topgan. Bargchalarining uzunligi 2-8 sm, ikki tomoni ham tuksiz, tuxumsimon. Gullari oq rangli bo'lib, tuksiz gulbandda o'rnashgan. To'pguli shingil, siyrak, uzunligi 15 sm gacha bo'lishi mumkin. Gulkosachasi



tuksiz, qo'ng'iroqsimon, uzunligi 7-12 mm. Dukkagi 1-2 bo'g'imli, tuksiz, to'rsimon jo'yakli, uzunligi 8 mm. Urug'lari to'q jigarrang, uzunligi 4 mm.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi), Qashqadaryo viloyati. Janubi-G'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi:Tog'larning pastki va tog'oldi hududlaridagi qattiq tuproqli, gipsli va archazorlarda o'sadi.

Oila: *Lamiaceae* – Yalpizdoshlar – Губоцветные

Bu oilaga mansub o'simliklarning, poyasi 4 qirrali. Barglari oddiy, poyada qarama-qarshi joylashgan. Gultojbarglari ikki labli, ostkisi 3 ta, ustkisi 2 ta tojibargdan iborat. Mevasi yong'oqcha. Bir va ko'p yillik o'tlardan iborat. Oilaning 30 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Dracocephalum* L. [29] **Tur:** *Dracocephalum formosum*
Gontsch – Ajoyib bo'zbosh – Змееголовник красивый

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi o'tsimon, tik o'suvchi, uzunligi 15-40 sm, oddiy, tuksiz yoki kam sonli yotiq tukli, siyrak bargli. Barglari cho'ziq, tuxumsimon, juda to'mtoq, tubi yuraksimon, tuksiz. Ildiz oldi barglarining bandi qolganlariga nisbatan uzun, poyaning eng yuqorisidagi barglari bandsiz. Gullari



boshcha to'pgulda joylashgan. Gulkosachasining uzunligi 18-20 mm, tepa qismi tishsimon. Gultojbargi pushti-binafsha rangli, uzunligi 35-40 mm. Yong'oqchasi tuksiz, silliq, uzunligi 5 mm, cho'ziq uchqirrali.

Fenologiyasi: Iyul-avgust oylarida gullab, avgust sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun, Sangardak-To'palang), Qashqadaryo. G'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori qismidagi mayda tuproqli, ochiq yerlarda o'sadi.

Oila: *Primulaceae* – Navruzguldoshlar – Первоцветные

Oilaning 1ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Primula* L. [30] **Tur:** *Primula baldshuanica* B. Fedtsch –
Baljuan navro'zguli – Первоцвет бальджуанский

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi kalta, ingichka jigarrang ildizlardan iborat. Barglarining ustki tomoni tuksiz, ostki tomoni zich tukli, uzunligi 3-6 cm cho'ziq-teskari tuxumsimon, uchki tomoni yumaloq, cheti notekis kichik tishli. To'pguli ko'p gulli, siyrak, yarim sharsimon. O'rama bargchalari tor qalami shaklda. Gulbandi o'rama bargchalaridan 2 marta qisqa. Gulkosachasi 5-7 mm bo'lib, qo'ng'iroqsimon shaklda. Gultojibargi binafsha rangli, uzunligi 7-10 mm naycha shaklda. Ko'sagi cho'ziq, gulkosachasi uzunligiga teng.



Fenologiyasi: Iyul oyida gullab, avgust oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Bobotog, Sangardak va Boysun).

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, gipsli yerlarda o'sadi.

**[31]Tur: *Primula capitellata* Boiss -
Kallakchali navro'zgul – Первоцвет
головчатый**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, ingichka oqish ildizlardan iborat. Barglarining ustki tomoni tuksiz, ostki tomoni oqish tukli yoz faslida, barg yaprog'ining uzunligi 2-3 cm, cho'ziq-teskari tuxumsimon. Barglarinig qirrasini mayda tishli yoki yaxlit, bandi keng qanotchali. To'pguli ko'p gulli,



zich, deyarli sharsimon. O'rama bargchalari, qalami-nashtarsimon, o'tkir uchli, cheti binafsha ranga bo'yalgan. Gulbandi juda qisqa, deyarli bandsiz. Gulkosachasi 3-4 mm bo'lib keng qo'ng'iroqsimon. Gultojibargi binafsha rangda, naychasimon uzunligi 5-5,5 mm. Ko'sagi ellipsimon, gulkosachasidan biroz uzun.

Fenologiyasi: Iyun oyida gullab, iyul oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori qismidagi alp o'tloqlarida o'sadi.

**[32]Tur: *Primula fedschenkoi* Regel – Fedchenko navro'zguli –
Первоцвет Федченко**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, kalta jigarrang duksimon ildizchalardan iborat. Barglari ingichka, teskari tuxumsimon, cheti to'mtoq tishli, qisqa bandli yoki bandsiz, ikki tomoni ham tuksiz, uzunligi 3-12 sm. Gulband o'qining uzunligi 8-12 sm, mevalagandan so'ng 25 sm gacha yetadi, ingichka tuksiz. Soyaboni zich. O'rama barglari biroz qisqa, nashtarsimon 2-3 mm. Gulkosachasi mayda qo'ng'iroqsimon bo'lib, uzunligi 3-6 mm. Gultojibargi yirik, qirmizi rangli. Ko'sagi sharsimon.



Fenologiyasi: Mart oyida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Bobotog', Boysun va Ko'hitang tizmasi), Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

[33]Tur: *Primula geranophylla* Kovalevsk – Yorongulbargli navro'zgul – Первоцвет геранелистный

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, ko'p sonli ingichka ildizlardan iborat. Barglari yumaloq-yuraksimon, o'tkir bo'laklarga kesilgan, uzunligi 3-7 sm, eni 2-5 sm, ustki tomoni taksiz och yashil rangda, bandi ensiz qanotli, yaprog'idan 2-3 marta uzun. To'pguli soyabonsimon, 4-5 gulli.



O'rama bargchalari qalami-nashtarsimon, o'tkir, bezchali tuklangan. Gulbandining uzunligi 1-2 sm, bezchali tuklangan. Gulkosachasi naysimon-qong'iroqsimon, bezchali tuklangan. Gultoji och qirmizi rangda bo'yalgan, kengligi 1,5 sm. Ko'sagi cho'ziq-yumaloq, gulkosachasidan biroz uzun.

Fenologiyasi: Iyul oylarida gullab, avgust oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun, Cho'lbair va Sangardak-To'palang).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va pastki qismidagi mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

Oila: *Asteraceae* – Qoqio’tdoshlar – Сложноцветные

Bu oila vakillari deyarli barcha qit’alardagi turli-xil iqlim mintaqalariga moslashgan. Hayotiy shakliga ko’ra bir yillik, ko’p yillik, ba’zan buta va daraxtlar ham uchraydi. Gullari aktinomorf yoki zigomorf bo’lib naysimon, tilsimon, voronkasimon va soxta tilsimon gularga ega. Savatcha, shingil, ro’vak va qalqon singari to’pgullarga ega. Oilaning 43 ta turi O’zbekiston Respublikasi “Qizil Kitobiga” kiritilgan.

Turkum: *Jurinea* Cass. [34]Tur: *Jurinea maxima* C. Winkl –

Katta yurineya – Наголоватка большая

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi bir nechta, tik o’suvchi, oddiy, jo’yakli, jingalak va bezchasimon tuklar bilan qoplangan, uzunligi 25-80 sm. Barglarinig ikki tomoni ham yashil rangda. Ildiz oldi va poyasining

pastki qismidagi
barglari bandli,
qolgan qismidagi
barglari esa bandsiz.
Poyaning yuqorisiga
qarab barglari
kichrayib boradi.
Savatchasi yirik,



kengligi 25-35 mm, yassi, yarim sharsimon. O’rama bargchalarining tashqi va o’rta qismidagilari yoysimon, ichkisi yuqoriga qaragan. Gultojbargi qirmizi rangda, uzunligi 22-25 mm. Urug’lari teskari piramidasimon, 6-7 mm uzunlikda, tuksiz, silliq.

Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, iyunda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog’ tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori qismidagi mayda tuproqli yerlardagi o'sadi.

Oila: *Campanulaceae*– Qo'ng'iroqguldoshlar –

Колокольчиковые

Turkum: *Ostrovskia Regel*. [35]Tur: *Ostrovskia magnifica*

***Regel*– Ajoyib ko'zagul – Островския великолепная**

Qisqacha morfologiyasi: Hayotiy shakliga ko'ra ko'p yillik o'simlik bo'lib, bo'yining uzunligi 170 sm atrofida. Poyasi tik o'suvchi ,



ichi g'ovak. Barglari poyada halqa hosil qilib o'rnashgan. Barglarining shakli cho'ziq-tuxumsimon bo'lib, chetlari yirik tishli, rangi esa ko'kimtir-yashil rangda. Gulkosachasining uzunligi 5 sm ga yetadi, qalami-nashtarsimon bo'lakli.

Gultojbarglarining rangi oq yoki och binafsha rangli, tuxumsimon, uzunligi 10 sm atrofida. Mevasi ko'saksimon, urug'lari esa cho'ziq tuxumsimon.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyulda mevasi yetiladi.

Areali: Surxondaryo (Sangardak-to'palang), Toshkent.

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori qismidagi mayda tuproqli van nam yerlarda o'sadi.

Oila: *Violaceae* – Gunafshadoshlar - Фиалковые

Turkum: *Viola L. [36]*Tur: *Viola canina subsp. montana (L.)*

Hartm – Tog' gunafshasi – Фиалка горная

Qisqacha morfologiyasi: Bo'yining uzunligi 6-30 sm gacha bo'ladi. Poyasi tik o'suvchi. Barglari bandli, yaprog'i tuxumsimon bo'lib, tubi esa yuraksimon. Gullari barg qo'ltig'ida joylashgan, uzunligi 1,5-2,5 sm, havorangda. Gultojbarglari cho'ziq teskari tuxumsimon. Ko'sagi cho'ziq tuxumsimon, biroz qirrali, tuksiz.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'larning oldi qismidagi ariqlar bo'yida osadi.

Oila: *Crassulaceae* – Semizo'tdoshlar – Толстянковые

Oilaning 1 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Rhodiola L. [37]*Tur: *Rhodiola heterodonta (Hook f. & Thomson) Boriss.*– Turlichatishli rodiola – Родиола разнозубчатая

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi 1-3 gacha bo'lib, uzunligi 15-40 sm, tik o'suvchi. Barglari uchqirrali-tuxumsimon, tubi yuraksimon, ba'zan poyasining yuqorisidagi barglari poya bo'ylab yopishgan, bandsiz, yirik tishli, ko'kish rangda. To'pguli zich, qalqonsimon. Gullari kalta gulbanda joylashgan, ikki uyli. Gulkosachasi qizg'ish

rangda, to'mtoq. Gultojbargi qalami, to'mtoq, qizg'ish rangda. Urug'lari ellipssimon, qo'ng'ir rangda, uzunligi 1-5 mm atrofida.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lbair tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi shag'alli, toshli va alp o'tloqlarida o'sadi.

[38]Tur: *Rhodiola gelida* Schrenk - Sovuqsevar rodiola – Родиола

ХОЛОДНАЯ

Qisqacha morfologiyasi: Poyasi ko'p sonli, uzunligi 3-10 sm atrofida. Barglari ketma-ket joylashgan, cho'ziq ovalsimon, chetlari mayda tishli yoki deyarli yaxlit, uzunligi 8-10 mm, eni 2-5 mm. To'pgulining eni 1-2 sm, zich ko'p gulli. Gullari ikki uyli. Gulkosachasi nashtarsimon, to'mtoq, uzunligi 3 mm, sariq rangda. Gultojbargi cho'ziq-ellipssimon, uzunligi 4 mm, sariq rangda. Tumshuqchasi disksimon. Urug'ining uzunligi 15 mm, nashtarsimon, qo'ng'ir rangda.



Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyuldan sentabrgacha mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'l Bair tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi shag'alli, toshli va alp o'tloqlarida o'sadi.

Turkum: *Pseudosedum* (Boiss.) A. Berger [39] **Tur:**
Pseudosedum bucharicum Boriss. – Бухоро соxtasemizagi –
Ложноочиток бухарский

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi ko'p sonli ingichka ildizlardan iborat, bo'lib, qalinligi 1-2 mm. Poyasi bir-nechta, tik o'suvchi, uzunligi 20-40 sm, qalinligi 2-3 mm. Barglari qalami, uzunligi 2 sm, eni 2 mm. To'pgullari ko'p gulli, eni 4-7 sm, pastkilari yoysimon egilgan. Gullarining uzunligi 7-10 mm. Gulkosachasi 5-6 marta qisqa gultojbargidan, asosidan nashtarsimon to'mtoq bo'laklarga bo'lingan. Gultojbargi voronkasimon, to'q pushti rangli. Urug'chisi gultojbargidan biroz uzun.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'l Bair tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori qismidagi toshli, shag'alli yerlarda o'sadi.

**[40]Tur: *Pseudosedum fedtschenkoanum* Boriss. – Fedchenko
soxtasemizagi – Ложноочиток Федченко**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi ko'psonli, ingichka, tugunaksimon yoki sharsimon yo'g'onlashgan. Poyasi bir-nechta, ingichka, tik, o'tgan yildan qolgan poyalari saqlanib qolgan, uzunligi 7-20 sm. Barglari qalami shaklda bo'lib, uzunligi 1 sm, eni 1 mm, to'mtoq. To'pgullari soyabon-qalqonsimon, zich gulli, uzunligi 0,5-1,5 sm gacha. Gullarining uzunligi 7-10 mm.



Gulkosachasi gultojburgidan 3 marta qisqa, asosidan nashtarsimon o'tkir bo'laklarga bo'lingan. Gultojburgi qo'ng'iroqsimon, to'q pushti rang naychadan hamda o'tkir uchli tishchalardan iborat. Changchi va urug'chisi gultojburgidan qisqa.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, mayda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Cho'lba'ir tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi shag'alli toshli yerlarda o'sadi.

**[41]Tur: *Pseudosedum longidentatum* Boiss.–Uzuntish tilovo't –
Ложноочиток длиннозубчатый**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi ko'psonli, yo'g'onligi 7 mm, urchuqsimon yo'g'onlashgan. Poyasi 1-3 ta gacha, tik o'suvchi, uzunligi 25-50 sm. Barglari qalami,



uzunligi 1-2 sm, eni 1 mm. To'pgulining eni 5-6 sm, ko'p gulli. Gullarining uzunligi 12-14 mm. Gulkosachasi 4-5 marta qisqa gultojbargidan. Gultojbargi nashtarsimon, pushti rangda, o'tkir uchli. Urug'chisi gultojbargidan qisqa.

Fenologiyasi: Aprelda gullab, may oyida urug'laydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lba'ir tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi shag'alli toshli yerlarda o'sadi.

Oila: *Liliaceae* – Loladoshlar – Лилейные

Yer sharining barcha joylarida, ayniqsa Yevrosiyo va yevropada ko'p tarqalgan. Gullari yirik, rangli, aktinomorf. Mevasi ko'sakcha. Yer ostki qismida piyozboshi bo'ladi. Efemeroid o'simliklar hisoblanadi. Oilaning 21 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Tupkum: *Tulipa* L. [42] Tur: *Tulipa carinata* Vved – Pushtakli

lola – Тюльпан килеватый

Qisqacha morfologiyasi: Piyozituxumsimon, yo'g'onligi 2-3 sm, qizg'ish, qoraqo'ng'ir charmsimon qobiq bilan o'ralgan, ichki tomoni qalin tukli. Poyasining uzunligi 20-55 sm. Barglarining soni 3-4-5 ta, deyarli tik, ko'kish yashil rangda, oddiy tuklangan, gulidan uzun emas. Barglarining eni 1,5-3 sm. Gulqo'rg'on barglari qizil, tubi qora, sariq yoki



qora rangli sariq xoshiyali, uzunligi 4-8 sm, tashqi gulqo'rg'on barglari cho'ziq-rombsimon, cho'ziq-nashtarsimon, ichkisi esa teskari-cho'ziq-

nashtarsimon yoki teskari-cho'ziq-tuxumsimon. Changchi iplari tuksiz, qora yoki sariq, changdoni sariq yoki binafsha. Tugunchasi ko'kish binafsha rangli.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Ko'hitang, Sangardak-To'palang, Cho'lhair), Qashqadaryo. Janubi-G'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli va toshli yonbag'irlarda o'sadi.

[43]Tur: *Tulipa dasystemon* Regel – Changchisi tukli lola –

Тюльпан ложноволосистотычиночный

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari tuxumsimon, yo'g'onligi 1-1,5 sm, qora-qo'ng'ir yoki kulrang-qo'ng'ir, qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan, tuksiz yoki qobig'ining ichki tomonining yuqori qismida biroz yotiq tuklari bor. Poyasining uzunligi 10-20 sm. Barglarining soni 2 ta, qalami, eni 5-15 mm. Guli yakka. Gulqo'rg'on barglari sariq, uzunligi 15-30 mm, tashqi tomoni xira binafsha rangli. Changchi iplari sariq rangli, tukli. Changdoni cho'ziq, uzunligi 3-5 mm, sariq rangli. Tugunchasining ustunchasi uzun.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo, Toshkent, Namangan, Farg'ona, Jizzax, Qashqadaryo. Tog'li O'rta Osiyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqlarda o'sadi.

[44]Tur: *Tulipa ingens* Hoog – Ulug'vor lola – Тюльпан великий

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 2-3-4 sm, qora-qo'ng'ir yoki qizg'ish-qo'ng'ir, nozik, ingichka qobiq bilan o'ralgan, ichki tomoni qalin tukli. Poyasining uzunligi 15-35 sm. Barglarining soni 3-5 ta, tarvaqaylagan, egri-bugri, ko'kimtir rangli, tukli, uchi biroz qirrali, gullaridan uzun emas, eng pastki barglari nashtarsimon, eni 2-5-(9)sm. Gulqo'rg'on barglari qizil randa, tubi qora, uzunligi 3-10 sm. Changchi iplari tuksiz, qora rangda. Changdoni qora, binafsha yoki to'q qizil rangli. Tugunchasi pushti rangli.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang va Boysun tizmasi), Samarqand, Qashqadaryo. G'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda o'sadi.

**[45]Tur: *Tulipa korolkowii* Regel – Korolkov lolasi – Тюльпан
Королькова**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 1-2-(3) sm, charmsimon, qora rangli qobiq bilan o'ralgan. Qobig'ining ichki tomonining yuqori qismi sertuk.

Poyasining uzunligi 10-20 sm.

Barglarining soni 3 ta,

tarvaqaylagan, egri-bugri,

ko'kish rangli. Poyasining eng

pastki qismidagi barglari qalami-

nashtarsimon, eni 0,5-1 sm.



Gulqo'rg'on barglari qizil ba'zan sariq yoki rang-barang, ichki tomonining asosi qora rangli, uzunligi 2-5 sm. Changchi iplarining pastki qismi qora, yuqori qismi qizg'ish. Changdoni sariq rangda.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog', Bobotog' tizmasi), Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli tuproqlarda o'sadi.

**[46]Tur: *Tulipa korshinskyi* Vved – Korjinskiy lolasi – Тюльпан
Коржинского**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 1,5-2 sm, deyarli qora rangli, charmsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, uning ichki tomonining tubi va yuqori qismi yotiq tukli. Poyasining uzunligi 5-10-(20)

sm. Barglarining soni 2-3-(4-5) ta, tuksiz, g'adir-budur. Poyaning eng pastki qismidagi barglari nashtarsimon, eni 1,5-3 sm. Gulqo'rg'on barglari oq rangda, tubi sariq dog'li, uzunligi 1,5-4 sm. Gulqo'rg'on barglarining tashqisining ustki tomoni binafsha tusli, qalami-nashtarsimon. Changchi iplari tuksiz, sariq, ustki tomoni binafsha tusli. Changdoni sariq.

Fenologiyasi: Mart oyida gullab, iyun oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Sangardak-To'palang), Qashqadaryo. Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi toshli yonbag'irlarda o'sadi.

**[47]Tur: *Tulipa micheliana* Hoog – Mixel lolasi, dilband lola –
Тюльпан Коржинского**

Qisqacha morfologiyasi: Piyoz tuxumsimon, yo'g'onligi 2-4 sm, qizg'ish, qora-qo'ng'ir rangli qobiq bilan o'ralgan bo'lib, uning ichki tomoni tukli, (tubi va yuqori qismi zich tukli). Poyasining uzunligi 15-40 sm. Barglarining soni 4-5 ta, egilgan, ko'kish rangda, ustki qismi binafsha rangli chiziqli, g'adir-budur. Poyaning eng pastki qismidagi barglari nashtarsimon, eni 2-6 sm. Gultojbarglari qizil yoki qirmizi-qizil rangli, uzunligi 2,5-10 sm gacha. Gulining tubi qora, sariq gardishli yoki gardishsiz. Changchi iplari tuksiz, qora, tubi sarg'ish yoki qizg'ish rangli. Changdoni binafsha rangli ba'zan sariq. Tugunchasi qizg'ish-yashil rangli.



Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog' tizmasi), Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismida va tog' oldi tekisliklaridagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yerlarda o'sadi.

[48]Tur: *Tulipa lanata* Regel – Sertuk lola – Тюльпан шерстистый

Qisqacha morfologiyasi: Piyoz tuxumsimon, yo'g'onligi 2-4 sm, qo'ng'ir rangli, yupqa charmsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, ichki tomoni qalin, uzun tuklar bilan qoplangan. Poyasining uzunligi 40-60 sm. Barglarining soni 4 ta, tarvaqaylagan, egilgan, g'adir-budur, uchki qismi qirrali. Poyaning pastki qismidagi barglari cho'ziq nashtarsimon, eni 3-6 sm. Gulqo'rg'on barglari qizil rangli, asosi qo'ng'ir, qora, sarg'ish hoshiyali, uzunligi 5-8 sm. Changchi iplari tuksiz, qora rangda. Changdoni qizg'ish-qora, tubi oq. Tugunchasi pushti.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, iyun oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog', Bobotog', Sangardak-To'palang), Qashqadaryo. Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yonbag'irlarda o'sadi.

**[49]Tur: *Tulipa orithyioides* Vved – Oritiya lola, oritiyasimon
lola – Тюльпан оритиевидный**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 1,5 sm atrofida, kulrang-qo'ng'ir, deyarli qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, ichki tomoni to'rsimon momiq tukli. Poyasinin uzunligi 7-10 sm, tuksiz, barglarining soni 2 ta, yaqin joylashgan, deyarli qarama-qarshi, egri-bugri, tuksiz, qalami-nashtarsimon, eni 1-1,5 sm. Gullari yakka. Gulqo'rg'on barglari oq rangda, tubi sariq, uzunligi 18-24 mm, tashqi tomonidagi o'rama bargchalarining ustki qismi xira binafsha rangli, nashtarsimon. Changchi iplari sariq, ostki qismi uzun, qipiqsimon tukli. Changdonining uzunligi 5-6 mm, xira binafsha rangli. Tugunchasi uzun ustunchali.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Cho'lbair va Sangardak-To'palang). Hisor tizmasi endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi toshli yonbag'irlarda o'sadi.

**[50]Tur: *Tulipa tubergeniana* Hoog – Tubergen lolasi –
Тюльпан Тубергена**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 3-5 sm, jigarrang-qo'ng'ir, ingichka qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, ichki tomni to'rsimon momiq tukli. Poyasining uzunligi 15-30 sm. Barglarining soni 3-4 ta, o'roqsimon egilgan, ko'kish, g'adir-budur, eng pastki qismidagi barglari nashtarsimon, eni (1,5)-2-4 sm. Gulqo'rg'on

barglari qizil, tubi qora, och sariq hoshiyali, uzunligi 2,5-10 sm gacha. Changchi iplari tuksiz, qora rangli. Changdoni binafsha rangli. Tugunchasi binafsha, qirmizi rangli.

Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog', Bobotog', Sangardak-To'palang). Janubi-g'arbiy Pomir-Oloyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismidagi va tog' etaklaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda va ochiq ola jinsli yerlarda o'sadi.



**[51]Tur: *Tulipa turkestanica* Regel – Turkiston lolasi –
Тюльпан туркестанский**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 1,5-2-(3) sm, qora, qo'ng'ir yoki qo'ng'ir rangli, charmsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, ichki tomonining yuqori qismi qalin tukli. Poyasining uzunligi 10-25 sm. Barglarining soni 2 ta, egilgan, tuksiz, qalami, bargining pastki qismi enliroq, eni 5-(8-15) mm. Gullarining soni 1-7 tagacha. Gulqo'rg'on barglari oq rangli, asosi sariq rangda, tashqi gulqo'rg'on barglarining ustki tomoni xira binafsha rangli. Changchi iplari sariq, kengaygan, tubi zich tukli.



Changdoni qalami, cho'ziq, uzunligi 4-6 mm, sariq ba'zan binafsha rangli. Tugunchasi qisqa ustunchali.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog'), Jizzax, Samarqand, Navoiy, Qashqadaryo, Farg'ona. Tog'li O'rta Osiyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki qismidagi va tog' etaklaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda o'sadi.

Turkum: *Fritillaria L.* [52] **Tur:** *Fritillaria olgae Vved – Olga jumaguli – Рябчик Ольги*

Qisqacha morfologiyasi: Piyoz sharsimon, eni 2-3 sm. Poyasining 30-70 sm oralig'ida, tuksiz. Barglari yashil, tuksiz, pastki qismidagi barglari qarama-qarshi joylashgan, o'rta va yuqori qismidagi barglari xalqa hosil qilib joylashgan, ba'zida eng yuqoridagi barglari qarama-qarshi joylashgan, doim yuqoriga qarab kichrayib boradi. Poyaning pastki qismidagi barglari cho'ziq, nashtarsimon, yuqori qismidagilari qalami-nashtarsimon. Guloldi barglari qalami. Gullari egik, (1)-2-3-(8) ta, juda siyrak shingil to'pgulda yig'ilgan. Gulqo'rg'on barglari sarg'ish yashil, uchki qismi qirmizi rangda. Gulqo'rg'on barglaridan changchilari ikki marta qisqa.



Fenologiyasi: May oyida gullab, iyun oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang, Boysuntog'), Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

**[53]Tur: *Fritillaria bucharica* Regel (*Rhinopetalum bucharicum* (Regel) Losinsk) – Buxoro jumaguli (Buxoro burungultojbargi) –
Ринопеталум бухарский**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi sharsimon, yo'g'onligi 1-2 sm. Poyasining uzunligi (10)-15-30 sm. Barglari ellipssimon, cho'ziq yoki cho'ziq nashtarsimon, to'mtoq yoki o'tkir, tuksiz, yashil rangli, qalinlashgan, poyada 2 tadan yaqin joylashgan. Gullari egilgan, (1)-3-10-(15) ta, siyrak, shingil to'pgulda joylashgan. Gulqo'rg'on barglari oq rangli, yashil tomirli, cho'ziq yoki cho'ziq nashtarsimon, uzunligi 12-20 mm. Shiradoni yashil, tashqi tomoni xira binafsha rangli. Changchi iplari gulqo'rg'on barglaridan 2 marta qisqa. Changdoni yashil rangli.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki qismidagi hamda tog' etaklaridagi ochiq ola jinsli, mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda va qoyalarda o'sadi.

Turkum: *Petilium Ludw.* [54] **Tur:** *Petilium eduardii* (Regel)

Vved. – Eduard petiliumi – Рябчик Эдуарда

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni cho'ziq-sharsimon bo'lib, eni 5-8 sm. Poyasi 40-80 sm, ba'zan 150 sm gacha etadi, tuksiz. Barglari yashil, yaltiroq, tuksiz, uchli. Poyaning pastki qismidagi barglari keng, cho'ziq yoki teskari nashtarsimon, ba'zan poyada xalqa hosil qilib o'rnashgan. Poyaning eng yuqoridagi barglari xam xalqa hosil qilib o'rnashgan, o'rta qismidagi barglari esa ketma-ket joylashgan. Gullari qo'ng'iroqsimon, pastga egilib turadi, qizg'ish, qirmizi-qo'ng'ir rangli, 2-4-6-8 tadan bo'lib soyabonsimon to'pgul hosil qiladi. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 4-5 sm, teskari cho'ziq, nashtarsimon, qo'ng'ir-qirmizi rangli tomirli. Changchisi gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta qisqa. Changchi ipi va changdoni oq rangda, changlari esa sarg'ish.



Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Bobotog', Sangardak-To'palang), Farg'ona.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismidagi mayda tuproqli, toshli, surilma yerlarda o'sadi.

Turkum: *Gagea Salisb.* [55] **Tur:** *Gagea afghanica* A. Terracc –

Afg'on boychechagi – Гусиный лук афганский

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni yakka, keng tuxumsimon, yo'g'onligi 5-10 mm bo'lib, tashqi tomondan qo'ng'ir to'rsimon qobiq

bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 10-30 sm, uchida bittadan piyozchalar o'rnashgan, yuqori qismi qisqa tuklangan. Ildiz oldi barglari bitta, qalami shaklda, eni 1-2,5 mm, tuksiz, gullaridan uzun. Poyadagi barglari to'pgulining pastki qismida navbatlashib joylashgan. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqi tomoni xira-binafsha rangli, tuksiz yoki siyrak tukli, uzunligi 8-12 mm, cho'ziq nashtarsimon, to'mtoq. Changdoni cho'ziq qalami, enidan 3-4 marta uzun. Tugunchasi ustunchasiz.



Fenologiyasi: Mart-aprelda gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi). O'rta Osiyo cho'llari endemi.

Ekologiyasi: Tekisliklardagi qumli cho'llarda o'sadi.

[56]Tur: *Gagea capillifolia* Vved – Tukbarg boychechak –

Гусиный лук волосолистный

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni ikkita bittasi juda kichik bo'lib, umumiy qobiq bilan qoplangan, qobig'i yupqa, och qo'ng'ir rangli. Poyasining uzunligi 8-12 sm, ingichka, nozik, egri-bugri, odatda uchi bitta gul bilan tugaydi, ba'zan ikkita. Ildiz oldi barglari ikkita, ingichka qilsimon, poyaning pastki qismidagi barglari tor nashtarsimon gullaridan qisqa. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 8-9 mm, teskari nashtarsimon, to'mtoq, ikki tomoni xam och sariq rangli. Changdoni ovalsimon yumaloq. Tugunchasi ustunchali.

Fenologiyasi: May-iyul oylarida gullab, iyun-avgus oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi qoyalarning soyasida, nam yerlarda o'sadi.

[57]Tur: *Gagea capusii* A. Terracc – Капу боуећеаги –

Гусиный лук Капу

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi yakka, tuxumsimon-sharsimon, uzunligi 8-13 mm, jigarrang-kulrang, charmsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 10-20 sm, uchida bittadan piyozchalar o'rnashgan, to'rt qirrali, deyarli gullarigacha yer ichiga ko'milgan. Ildiz oldi barglari bitta, qalami eni 3-5 mm, ko'kimtir rangli, tuksiz, gullaridan uzun. Gulqo'rg'on barglari sariq rangli bo'lib, tashqi tomoni yashil yoki xira-binafsha rangli, cho'ziq, to'mtoq, uzunligi 10-17 mm. Tugunchasi ustunchasiz.



Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli yonbag'irlarda va daryo vodiylarida o'sadi.

**[58]Tur: *Gagea chomutowae* (Pascher) Pascher – Xomutova
boychechagi – Гусиный лук Хомутовой**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari yakka, yonida g'uj piyozchalar hosil qiladi, tuxumsimon, uzunligi 8-15 mm, qora-qo'ng'ir rangli, charmsimon qobiq bilan qoplangan. Poyasi yo'g'onlashgan uzunligi 10-25 sm, ikki piyozning orasidan o'sib chiqadi. Ildiz oldi barglari bitta (ba'zan ikkita) silindrsimon, naysimon, yo'g'onligi 1,5-3 mm, yashil gullaridan uzun. Poyadagi barglari gulning pastki qismida joylashgan. Gulqo'rg'on barglari sariq rangda, tashqi tomoni yashil-binafsha rangda, uzunligi 9-15 mm, nashtarsimon-to'mtoq. Tugunchasi ustunchasiz.

Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi), Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi tekisliklaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda o'sadi.



**[59]Tur: *Gagea delicatula* Vved – Nazokatli boychechak –
Гусиный лук деликатный**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni tuxumsimon, g'uj, uzunligi 7-9 mm, kulrang qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasi ingichka, tuksiz, uzunligi 5-15 sm. Ildiz oldi barglari ipsimon, deyarli yarim silindr shaklda, tuksiz, poyadagi barglari navbatlashib joylashgan, ko'kimtir rangda, yuqoriga qarab tez



kichrayib boradi. Poyaning pastki qismidagi barglari tor qalami-nashtarsimon, egilgan poyani yarim qoplab turadi, gullaridan biroz qisqa. Gulqo'rg'on barglari deyarli oq, tashqi tomondagilari biroz yashil, uzunligi 6-8 mm, teskari cho'ziq nashtarsimon. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta qisqa. Tugunchasi ustunchali.

Fenologiyasi: Iyul oyida gullab, avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Cho'l Bair).

Ekologiyasi: To'g'ning yuqori qismidagi toshli yonbag'irlarda, qoyalarda, nam yerlarda o'sadi.

[60]Tur: *Gagea dshungarica* Regel – Jung'or boychechagi –

Гусиный лук джунгарский

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari yakka, keng tuxumsimon, uzunligi 5-10 mm bo'lib, tashqi tomondan kulrang yoki qo'ng'ir charmsimon qobiq bilan o'ralgan. Piyozni bir nechta piyozchalarning birlashishidan hosil bo'lgan. Poyasi ikkita piyozchaning orasidan chiqadi, uzunligi 5-15 sm. Ildiz oldi barglari yakka (kamdan kam xollarda ikkita), keng qalami, eni 3-8 mm, gullaridan uzun. Poyaning pastki qismidagi barglari nashtarsimon poyani qamrab turadi, gullaridan biroz qisqa, poyaning yuqorisidagi barglari esa qalami shaklda, kichik. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqi barglarining ustki qismi yashil, uzunligi 4-8 mm, cho'ziq nashtarsimon, to'mtoq. Tugunchasi ustunchasiz.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli, qorga yaqin yerlarda o'sadi.

**[61]Tur: *Gagea gageoides* (Zucc.) Vved – Piyozchali boychechak
– Гусиный лук луковичный**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari yakka, deyarli sharsimon, uzunligi 5-7 mm, nozik charmsimon, deyarli qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasi 5-20 sm, egri-bugri, tuksiz yoki asosi tukli, ildiz oldi barglari yakka, tuksiz, tor qalami, deyarli qilsimon. Poyaning pastki qismidagi barglari qalami-nashtarsimon, eni 4-5 mm, poyaning yuqorisiga qarab kichrayib boradi. Gulqo'rg'on



barglari sariq, tashqi tomoni biroz yashil, teskari qalami nashtarsimon, uzunligi 5-6 mm. Changchisi gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Tugunchasi uzun ustunchali.

Fenologiyasi: Aprel-avgust oylarida gullab, may-avgust oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta, pastki qismi va tog' etaklaridagi toshli nam yerlarda, toshli yonbag'irlarda va qoyalarda o'sadi.

**[62]Tur: *Gagea graminifolia* Vved – Boshqobargli boychechak –
Гусиный лук злаколистный**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari g'uj, yo'g'onligi 5 mm atrofida, och qo'ng'ir qobiqli. Poyasi yumaloq, 2-3 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari yakka, och yashil rangli, qalami, eni 2-3 mm, gullaridan uzun. Poyadagi barglari 2-4 ta, poyani yarim qoplab turadi. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqisining ustki tomoni keng yashil rangda, 10-12 mm uzunlikda, qalami-nashtarsimon, uchki qismi egilgan, o'tkir uchli. Changchilari gulqo'rg'onidan 1,5 marta qisqa. Tugunchasi ustunchasiz.



Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki qismlarida va tog' oldi tekisliklaridagi mayda tuproqli, gilli yerlarda o'sadi.

**[63]Tur: *Gagea gymnopoda* Vved – Tuksiz oyoqli boychechak –
Гусиный лук голоногий**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni yakka, tuxumsimon-sharsimon shaklda, uzunligi 5-7 mm, nozik charmsimon, deyarli qog'ozsimon qo'ng'ir rangli qobiq bilan o'ralgan, piyozchalari yo'q. Poyasi bitta piyozdan chiqib, tuksiz uzunligi 3-5 sm. Ildiz oldi barglari qilsimon-ipsimon. Poyadagi barglari ketma-ket joylashgan tuksiz, yashil,



yuqoriga qarab keskin kichrayib boradi. Poyaning pastki qismidagi barglari nashtarsimon yoki cho'ziq nashtarsimon, yuqori qismi qisqa qayrilgan, eni 4-6 mm. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqi qismining orqa tomoni yashil, cho'ziq, to'mtoq, uzunligi 5-6 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Tugunchasi ustunchali.

Fenologiyasi: Aprel-iyun oylarida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lba'ir va Sangardak-To'palang). Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

[64]Tur: *Gagea hissarica* Lipsky – Hisor boychechagi –

Гусиный лук гиссарский

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni yakka, yo'g'onligi 5-8 mm, deyarli qog'ozsimon kulrang-qo'ng'ir, qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan, piyozchalari yo'q. Poyasi deyarli taraqqiy etmagan. Ildiz oldi barglari bitta, yashil rangli, tuksiz, tor-qalami-nashtarsimon, poyani yarim qoplab turadi, gullaridan uzun. Gulbandi tuksiz. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqaridagilarining yuza qismi



yashil yoki ba'zida xira binafsha rang, uzunligi 6-13 mm, qalami nashtarsimon, tuksiz. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta qisqa. Tugunchasi ustunchasiz.

Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyun-avgust oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Cho'lbair tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

[65]Tur: *Gagea minutiflora* Regel – Maydagul boychechak –

Гусиный лук мелкоцветный

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi yakka, tuxumsimon-sharsimon, uzunligi 4-6 mm, qora-qo'ng'ir rangli, nozik charmsimon, piyozchalari yo'q. Poyasi ikkita piyozchaning orasidan chiqadi, bittasi juda kichik, tuksiz, 2-10 sm gacha uzunlikda. Ildiz oldi barglari bitta, qilsimon-ipsimon, tuksiz gullaridan biroz uzun. Poyadagi barglari ketma-ket joylashgan, yuqoriga qarab tez kichrayib boradi, yashil, tuksiz. Poyaning pastki qismidagi barglarining uchki qismi uzun qayrilgan, poyani qamrab turadi, gullaridan biroz qisqa yoki teng. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqisi yashil, nashtarsimon, to'mtoq, uzunligi 4-5 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Tugunchasi ustunchasiz.



Fenologiyasi: Aprel-iyun oylarida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi). Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yonbag'irlarda o'sadi.

[66]Tur: *Gagea ova* Stapf – Tuxumsimon boychechak –

Гусиный лук яйцевидный

Qisqacha morfologiyasi: Piyozni g'uj, tuxumsimon, uzunligi 6-7 mm, charmsimon qo'ng'ir ba'zan qora qobiq bilan o'ralgan. Piyozchalari ko'p, poyasi ikkita piyozning orasidan chiqqan. Ildiz oldi barglari yakka, ipsimon, silindrsimon, eni 1 mm atrofida, ko'kish rangli, tuksiz. Poyadagi barglari ketma-ket o'rnashgan, ko'kish rangli, yuqoriga qarab kichrayib boradi. Gulqo'rg'on barglari oqish-sariq, deyarli oq, tashqisining yuzasi yashil, teskari-qalami-nashtarsimon, to'mtoq, uzunligi 6-12 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Tuguncha ustunchasining uzunligi 1 mm.



Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprelda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi). Farg'ona, Samarqand, Toshkent.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismi va tog' etaklaridagi tekisliklardagi mayda tuproqli, gilli yerlarda o'sadi.

[67]Tur: *Gagea pseudoreticulata* Vved – Soxtato'rli boychechak

– Гусиный лук ложносетчатый

Qisqacha morfologiyasi:Piyozlari

g'uj, tuxumsimon, yo'g'onligi 6-10 mm, och-qo'ng'ir rangli qobiq bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 10-15 sm, oddiy tuklangan. Ildiz bo'g'zidagi barglari yakka, egilgan, ipsimon, eni 1,5-2 mm, ko'kish, novsimon. Poyadagi barglari 3-6 ta, biroz kengaygan, poyani qamrab turadi, ko'kish rangli, egilgan. Poyaning pastki qismidagi barglari yirik, gulidan ikki marta uzun.



Gulbandi tuklangan. Gulqo'rg'on barglari och sariq rangli, tashqisining yuza qismi yashil, zich mayda tukli, ba'zida tuksiz, uzunligi 10-20 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 2 marta qisqa. Tugunchasi ustunchasiz.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Samarqand, Toshkent.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va old qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

[68]Tur: *Gagea stipitata* Merckl. ex Bunge – Poyasimon

boychechak – Гусиный лук стебельчатый

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari yakka, deyarli sharsimon, uzunligi 5-6 mm, qora charmsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasi tuksiz,

uzunligi 10-20 sm. Ildiz bo'g'zidagi barglari ipsimon, eni 0,75 mm, yashil, tuksiz. Poyadagi barglari navbatlashib joylashgan, yuqoriga qarab kichrayib boradi. Poyaning pastki qismidagi barglari poyani yarim qoplab turadi, qalami yoki qalami-nashtarsimon, uchki qismi uzun qayrilgan, gullaridan qisqa. Gulqo'rg'on barglari sariq, tashqi tomonining yuza qismi



yashil, tor ensiz, ellipssimon, nashtarsimon, to'mtoq, uzunligi 5-7 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Tuguncha ustunchasining uzunligi 1 mm atrofida.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' tizmasi), Samarqand, Toshkent, Farg'ona.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismida va tog' oldi tekisliklaridagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli va gilli yerlarda o'sadi.

[69]Tur: *Gagea vvedenskyi* Grossh – Vvedenskiy boychechagi –

Гусиный лук Введенского

Qisqacha morfologiyasi: Piyozlari yakka, cho'ziq, tuxumsimon, yo'g'onligi 7-10 mm, qo'ng'ir-kulrang, chalkash to'rsimon qobiq bilan o'ralgan, piyozchalari yo'q. Poyasining uzunligi 10-20 sm, qisqa siyrak tuklangan, ba'zan tuksiz. Ildiz oldi barglari yakka, qalami, naysimon, eni 2-3 mm, tuksiz, gullaridan uzun. Poyadagi barglari ketma-ket joylashgan, kipriksimon. Poyaning pastki qismidagi barglari qalami, uchki qismi egilgan, gullaridan 3 marta qisqa. Gulqo'rg'on barglari och sariq, tashqi

tomoni keng, yashil, binafsha rangli, tuksiz, uzunligi 10-14 mm, nashtarsimon, to'mtoq. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan biroz qisqa. Changdoni qalami, cho'ziq. Tugunchasi ustunchasiz.

Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyul oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Cho'lba'ir va Boysuntog' tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va o'rta qismidagi toshli, shag'alli yerlarda o'sadi.

Oila: Colchicaceae – Savrinjondoshlar - Безвременниковые

Turkum: *Colchicum* (Tourn.) L. [70]Tur: *Colchicum kesselringii*

Regel – Kesselring savrinjoni – Безвременник Кессельринга

Qisqacha morfologiyasi: Tugunak

piyozi cho'ziq-tuxumsimon yoki cho'ziq bo'lib, qora qo'ng'ir, charmsimon qobiq bilan o'ralgan, qobiq poya bo'ylab davom etgan. O'simlik gullagan vaqtda poyasi yerning ostida bo'ladi, mevalashdan oldin yerdan biroz ko'tariladi. Barglarining soni (2)-4-8 ta, qalami, eni 4-10 mm, cheti



silliq. Gullarining soni 1-3-(5) ta. Gulqo'rg'on barglari oq rangli bo'lib, tashqi tomoni to'q binafsha rangli chizikli, qalami-nashtarsimon yoki nashtarsimon, uzunligi 15-25-(40) mm. Changdonlari qalami.

Fenologiyasi: Fevral-may oylarida gullab, mart-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi), Toshkent, Jizzax, Navoiy, Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi tekisliklarda, nam, tuzli yerlarda, mayda tuproqli, shag'alli, toshli, qorga yaqin yerlarda o'sadi.

[71]Tur: *Colchicum luteum* Baker – Sariq savrinjon – Безвременник желтый



Qisqacha morfologiyasi: Tugunak piyozi cho'ziq tuxumsimon, eni 10-30 mm, qo'ng'ir charmsimon qobiq bilan o'ralgan bo'lib, poyasining asosigacha o'rab turadi. Gullagan vaqtda poyasi yer ichida bo'ladi, mevalagandan so'ng biroz yerdan chiqadi. Barglari 2-3 ta qalami, eni 7-30 mm, cheti silliq. Gullari 1-3 ta. Gulqo'rg'on barglari sariq rangda ba'zida tashqi tomoni binafsha rangda bo'ladi, to'mtoq, uzunligi 15-20-30 mm atrofida bo'ladi. Ko'sagi yirik, cho'ziq, uzunligi 2-3,5 sm.

Fenologiyasi: Mart-iyul oylarida gullaydi, aprel-avgust oylarida esa mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori va pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

Oila: *Asphodelaceae* – Shirachdoshlar – Асфоделевые

Oila vakillari Amerika qit'asidan tashqari hududlarda tarqalgan. Ildizi panjasimon shoxlangan, etli, sariq sutsimon suyuqlik saqlaydigan

o'simliklar. Poyasi bargsiz, shoxlanmagan, to'pguli ko'p gulli, piramidasimon. Oilaning 12 ta tur o'simligi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Eremurus M. Bieb. [72]* **Tur:** *Eremurus aitchisonii*

Baker – Echison shirachi – Эремурус Эчисона

Qisqacha morfologiyasi: Ildiz poyasi qisqargan, nursimon joylashgan, bo'laklari urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 10-15 mm. Barglari keng qalami, eni 3-8 sm oralig'ida, och yashil rangli, ustki tomoni keng jo'yakli, tuksiz. Poyasining uzunligi 70-120 sm, tuksiz yoki tubi biroz g'adir-budur tukli. To'pguli shingil, shingili siyrak, kam gulli, silindrsimon. Uzunligi 20-45 sm. Guloldi



barglari uchburchak, nashtarsimon, kipriksimon. Gulbandlari gorizontaal yo'nalgan, pastki qismidagilari gulqo'rg'onidan ikki marta uzun. Gulqo'rg'on bargchalari bir tomirli, pushti rangli, tubi sariq dog'li, uzunligi 20-24 mm. Changchilari gulqo'rg'onidan 1,5 marta qisqa.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lbair va Ko'hitang tizmasi), Samarqand, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'larning pastki qismidagi mayda tuproqli, shag'alli yonbag'irlarda o'sadi.

[73]Tur: *Eremurus baissunensis* O. Fedtsch – Boysun shirachi –

Эремурус байсунский

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, urchuqsimon yo'g'onlashgan, ildizlarining eni 4-6 mm. Poyasining uzunligi 60-80 sm. Barglari ingichka qalami shaklda, eni 4-6 mm. Shingili siyrak, ko'p gulli, uzunligi 25-45 sm. Guloldi barglari yirik, uchburchak, nashtarsimon. Shingilining pastki qismidagi gulbandlari gulqo'rg'onidan 1,5 marta uzun. Gullari hidli. Gulqo'rg'on bargchalari oq, bitta tomirli. Changchilari notekis, gulqo'rg'onidan qisqa.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi), Qashqadaryo. Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'larning pastki qismidagi ochiq ola jinsli yerlarda va gipsli yerlarda o'sadi.

[74]Tur: *Eremurus iae* Vved – Iya shirachi, Beshtomir shirach –

Эремурус Ии

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, nursimon joylashgan, ildizlari ko'p, kuchsiz yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 3-4-5 mm. Barglari keng qalami, eni 15-20 mm, jo'yakli, ko'kish, tuksiz. Poyasi tuksiz, uzunligi 60-80-100 sm. Shingili silindrsimon, uzunligi 20-30 sm, siyrak, kam gulli. Guloldi barglari uch qirrali, uzun egilgan, nozik, kipriksimon.

Gulbandi yashil, pastki qismidagilari gulqo'rg'on barglaridan ikki marta uzun. Gulqo'rg'on bargchalari 3-5 tomirli, jigarrang, pushti rangli chiziqli, nashtarsimon, uzunligi 11-12 mm. Cjhangchilari gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta uzun. Changchi ipi jigar rangli.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Cho'lbair, Sangardak-To'palang).

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

[75]Tur: *Eremurus kaufmannii* Regel – Kaufman shirachi –

Эремурус Кауфмана

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 7-9 mm. Barglari keng qalami, eni (5)-20-(35) mm, jo'yakli, qirrali, ko'kish, zich, qisqa tukli. Poyasining uzunligi 30-150 sm oralig'ida. Shingili juda zich, ko'p gulli, silindrsimon, uzunligi 10-40 sm. Guloldi barglari uch qirrali, nashtarsimon, egilgan. Shingilining pastki qismidagi gulbandlari gulqo'rg'onidan biroz qisqa. Gulidan meva hosil bo'lgandan so'ng, gulbandlari to'pgul



o'qiga deyarli yotadi. Gulqo'rg'on barglari bitta tomirli, oq rangli, tubi sariq dog'li, uzunligi 15-22 mm. Changchi iplari gulqo'rg'on barglariga deyarli teng.

Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori va o'rta qismidagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli yerlarda o'sadi.

**[76]Tur: *Eremurus luteus* Baker – Sariq shirach – Эремурус
желтый**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 6-7 mm. Barglari tor qalami, eni 4-7 mm, ko'kish, tuksiz. Poyasining uzunligi 35-60 sm, tuksiz. Shingili siyrak, kam gulli, uzunligi 20-30 cm. Guloldi barglari yirik, uch qirrali nashtarsimon, egilgan. Shingilining pastki qismidagi gullarining bandi, gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta uzun. Gullari hidli. Gulqo'rg'on barglari bir



tomirli, uzunligi 15-19 mm, juda oqish sariq rangli, tubi sariq. Changchilari notekis, gulqo'rg'on barglaridan ikki marta qisqa.

Fenologiyasi: Aprel oyida gullab, may oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi). Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismi va tog' oldi hududlaridagi ochiq ola jinsli yerlarda o'sadi.

[77]Tur: *Eremurus olgae* Regel – Olga shirachi – Эремурус

Ольги

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 7-10 mm, barglari ingichka, qalami, eni 5-10-15 mm, qirrali, jo'yakli, ko'kish, tuksiz. Poyasi tuksiz yoki tubi g'adir-budur, uzunligi 50-150 sm oralig'ida. Shingili zich, ko'p gulli, silindrsimon yoki konussimon, uzunligi 20-80 sm. Guloldi barglari uch qirrali, asosi ipsimon, tuksiz, gulbandi



gorizontal yo'nalgan, pastki qismidagi gulbandlari gulqo'rg'oni bilan teng yoki 2,5 marta uzun. Gulqo'rg'on barglari bir tomirli, oqish pushti rangli, tubi sariq dog'li, uzunligi 11-18 mm oralig'ida. Changchilari gulqo'rg'on barglari bilan teng yoki biroz uzun.

Fenologiyasi: Iyun-avgust oylarida gullab, iyul-sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi qismidagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli qoyalarda o'sadi.

[78]Tur: *Eremurus pubescens* Vved – Momik shirach –

Эремурус пушистый

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, nursimon joylashgan, bo'laklari urchuqsimon joylashgan, eni 5-7 mm. Poyasining uzunligi 80-100 sm. Bargi qalami, eni 2 sm atrofida. Shingili siyrak, ko'p gulli, uzunligi 40-55 sm. Guloldi bargchalari ingichka, uchburchak shaklda,

momiq tukli, shingilining pastki gullarining gulbandi gulqo'rg'onidan 2-2,5 marta uzun. Gulqo'rg'on bargchalari oqish qizg'ish rangda. Changchilari gulqo'rg'on bargchalaridan qisqa.



Fenologiyasi: May oyida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lba'ir, Sangardak-To'palang tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismidagi shag'alli qoyalarda o'sadi.

[79]Tur: *Eremurus regelii* Vved – Regel shirachi – Эремурус Регеля

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan. Barglari keng qalami, eni 15-50 mm oralig'ida, jo'yakli, qirrali, tuksiz, ko'kish rangli. Poyasining uzunligi 60-180 sm oralig'ida, tuksiz. Shingili zich, ko'p gulli, silindrsimon, uzunligi 15-80 sm oralig'ida. Guloldi barglari uch qirrali, nashtarsimon, kipriksimon. Gulbandi jigarrang, to'q qizil rangli. Gullaridan meva hosil bo'lganidan so'ng uning bandlari to'pgul o'qiga yoysimon egiladi. Gulqo'rg'on barglari uch



tomirli, oqish pushti rangli, jigarrang, to'q qizil rangli chiziqli, nashtarsimon, uzunligi 12-13 mm. Changchi iplari gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta uzun.

Fenologiyasi: May-iyul oylarida gullab, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli toshli yerlarda o'sadi.

[80]Tur: *Eremurus robustus* (Regel) Regel – Nor shirach –

Эремурус мощный

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 12-15 mm. Barglari keng nashtarsimon, eni 4-8 sm, ko'kish rangli, jo'yakli, qirrali, tuksiz. Poyasi tuksiz, uzunligi 1-2 metr oralig'ida, madaniylashtirilganlari 3,5 metrgacha boradi. Shingili juda zich, ko'p gulli, silindrsimon, uzunligi 35-100 sm gacha. Guloldi barglari uch qirrali, nashtarsimon, momiq tukli, kiprikli.



Shingilining pastki qismidagi gullarining bandi gulqo'rg'onidan 1,5-2 marta uzun. Gulqo'rg'on barglari bir tomirli, och pushti rangli, tubi sariq dog'li, uzunligi 17-18 mm.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Barcha tog'li rayonlarda uchraydi. Tog'li O'rta Osiyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, o'rta va pastki qismidagi mayda tuproqli, toshli, shag'alli qoyalarda o'sadi.

**[81]Tur: *Eremurus sogdianus* (Regel) Franch – Sug'd shirachi –
Эремурус согдийский**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 5-8 mm. Barglari ingichka, qalami, eni 4-15 mm oralig'ida, jo'yakli, qirrali, tuksiz, yoki g'adir-budur tukli. Poyasining tubi g'adir-budur tukli, uzunligi 35-150 sm oralig'ida. Shingili juda ham siyrak, ko'p gulli, konussimon, uzunligi 15-70 sm oralig'ida. Guloldi barglari uch qirrali, kipriksimon. Gulbandi yashil. Shingilining pastki qismidagi gulbandlari gulqo'rg'onidan 5 marta uzun, gorizontaal yo'nalgan. Gulqo'rg'on barglari uch tomirli, oq, yashil chiziqli, uzunligi 10-14 mm.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi qismidagi toshli, shag'alli surilmalarda o'sadi.

**[82]Tur: *Eremurus suvorovii* Regel – Suvorov shirachi –
Эремурус Суворова**

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 5-7 mm, kam sonli. Barglari ingichka, qalami, eni 3-5-7 mm, ko'kish, tuksiz. Poyasi g'adir-budur, uzunligi 50-100 sm oralig'ida.

Shingili siyrak, kam gulli, deyarli silindrsimon, uzunligi 15-50 sm oralig'ida. Guloldi barglari ingichka, uch qirrali, kipriksimon. Shingilining pastki qismidagi gulbandlari gulqo'rg'onidan 1,5-2 marta uzun. Gulqo'rg'on barglari bir tomirli, oqish sariq rangli, tubi sariq dog'li, uzunligi 13-15 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 1,5 marta qisqa.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, may-iyun oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Cho'lba'ir va Bobotog' tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning pastki va tog' oldi hududlaridagi mayda tuproqli qoyalarda o'sadi.

[83]Tur: *Eremurus stenophyllus* (Boiss. & Buhse) Baker –

Yupqabarg shirach – Эремурус тонколистный

Qisqacha morfologiyasiu: Ildizpoyasi urchuqsimon yo'g'onlashgan, yo'g'onligi 7-10 mm, asosi g'uj. Barglari ingichka, qalami, eni 4-10 mm oralig'ida, jo'yakli, qirrali, ko'kish, tuksiz. Poyasining asosi g'adir-budur tukli, ba'zan tuksiz, uzunligi 70-150 sm oralig'ida. Shingili juda zich, ko'p gulli, silindrsimon, uzunligi 15-70 sm atrofida. Guloldi barglari uch qirrali, tubi deyarli ipsimon, tuksiz.



Gulbandi gorizontaal yo'nalgan, pastki qismidagilari gulqo'rg'on barglari bilan teng yoki uzun. Gulqo'rg'on barglari bir tomirli, sariq rangli,

gullagandan so'ng jigarrangga kiradi, uzunligi 9-12 mm, cho'ziq. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 2 marta uzun.

Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismidagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli qoyalarda o'sadi.

Oila: *Iridaceae* – Gulsafsardoshlar – Ирисовые

Oila vakillari yer sharining hamma mintaqalarida uchraydi. Ildizpoyali efemeroid o'tlar, gullari bittadan o'rnashgan, zigomorf, binafsha, sariq, pushti, qo'ng'ir rangli chiziqlari bor. Mevasi ko'p urug'li ko'akcha. Oilaning 7 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

**Turkum: *Crocus L.* [84]Tur: *Crocus korolkowii* Regel & Maw –
Korolkov zafaroni – Шафран Королькова**

Qisqacha morfologiyasi: Tugunak piyozi sharsimon, yo'g'onligi 1-2 sm, deyarli charmsimon, sarg'ish rangli qobiq bilan o'ralgan. Barglarining soni 5-15 ta, tor qalami shaklda, eni 2 mm atrofida, silliq, yashil, oq jo'yakli. Gullari 1-5 tagacha. Gulqo'rg'on barglari to'q sariq rangda bo'lib, tashqi tomonida binafsha rangli dog'li, nashtarsimon yoki cho'ziq, uzunligi 15-40 mm. Changchilari gulqo'rg'on barglaridan 2 marta qisqa. Changdoni to'q sariq rangda.



Fenologiyasi: Fevral-may oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog', Bobotog', Sangardak-To'palang va Ko'hitang tizmasi), Farg'ona, Jizzax, Samarqand, Qashqadaryo. Tog'li O'rta Osiyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta, pastki va tog' oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli, toshli, ochiq ola jinsli soz tuproqli, qor atrofidagi nam yerlarda o'sadi.

Turkum: *Gladiolus L.* [85] **Tur:** *Gladiolus italicus Mill* – Italiya
gladiolusi, ekma ilongul – Шпажник посевной

Qisqacha morfologiyasi: Tugunak piyozi tuxumsimon, qo'ng'ir rangli qobiq bilan o'ralgan. Bo'yining uzunligi 90 sm atrofida. Barglari qattiq, qilichsimon, uzunligi 20-30 sm, o'tkir uchli, tomirli. To'pguli boshoqsimon 5-10 gulli. Gulqo'rg'oni pushti rangli. Mevasi yumaloq, ko'sak meva.



Fenologiyasi: Iyun oyida gullaydi, iyulda mevasi yetiladi.

Areali: Surxondaryo (Boysun, Sangardak-To'palang va Ko'hitang), Jizzax, Qashqadaryo.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki va tog'oldi xududlaridagi mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

Turkum: *Yuno Tratt. [86]* **Tur:** *Juno bucharica (Foster) Vved. –*

Buxoro gulsafsari – Ирис бухарский

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi yo'g'on, urchuqsimon. Piyozining yo'g'onligi 2 sm. Poyasining uzunligi 15-50 sm atrofida. Barglari poyada ma'lum bir oraliqda poyaning uchigacha joylashgan. Barglari och yashil rangda, o'roqsimon bo'lib, uchiga qarab ingichkalashib boradi. Gullarining soni 1-6 tagacha. Gulqo'rg'oni naysimon bo'lib uzunligi 3,5-5 sm, sarg'ish-yashil rangda. Tashqi gulqo'rg'on barglari 3,5-4,5 sm, ochiq sariq rangda yoki oq rangda bo'lib, yashil-binafsha rangli tomirli. Ichki gulqo'rg'on barglari 1-2 sm, ochiq sariq yoki oq rangda, o'tkirlashgan. Changdoni oqish.



Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-may oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun, Sangardak-To'palang va Ko'hitang). Janubi-g'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'larning yuqori va pastki qismidagi mayda tuproqli va shag'alli yerlarda o'sadi.

[87] **Tur:** *Juno narbutii (O.Fedtsch.) Vved.– Norbut gulsafsari –*

Ирис Нарбута

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi urchuqsimon, yo'g'on. Piyozining yo'g'onligi 2 sm atrofida. Poyasi qisqa, 5-10 sm. Barglari to'q yashil

rangda, o'roqsimon, silliq, cheti hoshiyali. Gullari 1-6 tagacha bo'lib, hidsiz. Tashqi gulqo'rg'on barglarining uzunligi 3,5-5 sm och binafsha yoki sariq rangli. Ichki gulqo'rg'on barglarining uzunligi 2,5-3,5 sm, binafsha rangli, to'q binafsha rang tomirli, teskari nashtarsimon. Changdoni oqish yoki ko'kish rangda bo'ladi.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-mayda mevalaydi.



Areali: Surxondaryo (Ko'hitang va Boysuntog' tizmasi), Toshkent, Namangan, Qashqadaryo, Farg'ona, Samarqand, Jizzax. Tog'li O'rta-O'siyo endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli va toshli yerlarda o'sadi.

[88]Tur: *Juno nicolai Vved.* – Nikolay gulsafsari – Ирис

Николая

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi urchuqsimon, yo'g'on. Piyozining kengligi 1,5 sm atrofida. Poyasi deyarli yo'q. barglari o'roqsimon, o'rtasidan uchiga qarab ingichkalashib borgan, cheti tor hoshiyali. Barg pastki qismining eni 1-2 sm. Gullarining soni 1-3 ta atrofida, pushti, binafsha rang. Tashqi gulqo'rg'on bargchalarining uzunligi 4-4,5 sm, chetki tomoni deyarli oq,



o'rtasi sariq, binafcha rangli tomirli, uchki tomoni to'q qirmizi-binafsha rangli. Ichki gulqo'rg'on bargchalarining uzunligi 3-3,5 sm, pushti binafsha rangli.

Fenologiyasi: Mart-aprel oylarida gullab, aprel-mayda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Sangardak-To'palang)

Ekologiyasi: Tog'ning pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, shag'alli va toshli yerlarda o'sadi.

[89]Tur: *Juno parvula Vved.* – Mayda gulsafsar – Ирис мелкий

Qisqacha morfologiyasi: Ildizi juda yo'g'on, qisqa, urchuqsimon. Piyozi kengligi 1 sm atrofida, tashqi tomoni qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 5-10 sm. Barglari deyarli tik, uchiga qarab ingichkalashib boradi, cheti hoshiyali. Gullarining soni 1-5 ta, och sarg'ish-yashil rangli. Tashqi gulqo'rg'on barglarining uzunligi 3-3,5 sm, ko'k-yashil tomirli. Ichki gulqo'rg'on barglarining uzunligi 5 mm atrofida, o'tkir.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyulda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Sangardak-To'palang), Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax. G'arbiy Pomir-Oloy endemi.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori qismidagi shag'alli, toshli yerlarda o'sadi.

Turkum: *Iris L.* [90] **Tur:** *Iris korolkovii* Regel – Korolkov
gulsafsari – Ирис Королькова

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasining yo'g'onligi 1 sm atrofida. Poyasi oddiy, uzunligi 30-40 sm. Barglari qilichsimon, keng qalami eni 10-15 mm, ko'kish rangda, deyarli poyasining uzunligiga teng. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 6,5 sm, o'tkir uchli, sarg'ish-kulrang rangda bo'lib, qirmizi-qo'ng'ir rangli dog'i va tomirlari mavjud. Urug'lari noksimon shaklda.



Fenologiyasi: Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun tizmasi), Toshkent, Namangan.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori va pastki qismidagi toshli va shag'alli yerlarda o'sadi.

[91]Tur: *Iris longiscapa* Ledeb – Uzunpoya gulsafsar – ирис
длинностебельный

Qisqacha morfologiyasi: Ildizpoyasi qisqa, bo'g'imli, ildizi biroz yo'g'on. Poyasi bargsiz, uzunligi 7-25 sm. Barglari ensiz-qalami, novsimon shaklda, eni 2-3 mm. Gulqo'rg'on barglari binafsha rangli, qo'ng'ir rangli tomirli, uzunligi 3 sm gacha bo'lishi mumkin. Urug'lari tuxumsimon.



Fenologiyasi: Aprelda gullab, mayda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Surxon-Sherobod vodiysi), Sirdaryo, Jizzax, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo viloyatlarida tarqalgan. O'rta-Osiyo endemi.

Ekologiyasi: Tog' oldi tekisliklarida, cho'llardagi qumlarda o'sadi.

[92]Tur: *Iris songarica* Schrenk – Jung'or gulsafsari – Ирис джунгарский

Qisqacha morfologiyasi: Zich chim hosil qiladigan o'simlik. Poyasining uzunligi 35-60 sm, asosini quruq barglar qoldig'i qoplab turadi. Barglari qattiq, qalami shaklda, eni 2-6 mm, o'tkir uchli. Guli oqish kulrang bo'lib, ko'p sonli binafsharang nuqtali, biroz hidli. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 5 sm atrofida. Urug'lari sharsimon.



Fenologiyasi: May oyida gullab, iyunda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Ko'hitang va Boysuntog' tizmasi).

Ekologiyasi: Tog'ning pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, ochiq yerlarda o'sadi.

[93]Tur: *Iris sogdiana* Bunge – Sug'd gulsafsari – Ирис согдийский

Qisqacha morfologiyasi: Siyrak chim hosil qiluvchi o'simlik bo'lib, ildizpoyasining uzunligi 1 sm atrofida. Poyasining uzunligi 30-50 sm. Barglari qilichsimon, eni 4-15 mm



atrofida bo'ladi. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 4,5-5,5 sm atrofida. Tashqisi gulqo'rg'on barglari oq-sarg'ish, uchki tomoni esa binafsha rangda, tomirli. Ichki gulqo'rg'on barglari, tashqisidan qisqa, binafsha rangli. Urug'lari qirrali.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Barcha tog'li va tog' oldi rayonlarda tarqalgan.

Ekologiyasi: Tog'ning yuqori, pastki va tog'oldi hududlaridagi mayda tuproqli, ariq bo'ylarida va o'tloqlarda o'sadi.

Oila: *Amaryllidaceae* – Nargizdoshlar – Амариллисовые

Bu oilaga asosan piyozli ko'p yillik o'tlar kiradi. Barglari nashtarsimon, qalami shaklda. Gullari aktinomorf, ikki jinsli. Mevasi ko'sakcha. Oilaning 17 ta turi O'zbekiston Respublikasi "Qizil Kitobiga" kiritilgan.

Turkum: *Sternbergia Waldst. et Kit. [94]* Tur: *Sternbergia lutea (L.) Spreng.* – Sariq shternbergiya – Штернбергия желтая

Qisqacha morfologiyasi: Piyozideyarli yumaloq bo'lib, uzunligi 5 sm, eni esa 4 sm. Bo'yining uzunligi 20 sm atrofida. Barglari keng-nashtarsimon, tarnovsimon, to'mtoq, chetlari mayda tishli. Bargi guli bilan bir vaqtda kuzda o'sib chiqadi. Guli sariq rangda, bandsiz.



Fenologiyasi: Sentabr-oktabr oylarida gullaydi.

Areali: Surxondaryo (Sharg'un).

Ekologiyasi: Tog'larning o'rta qismidagi qoyalarda va toshli yonbag'irlarda o'sadi.

Turkum: *Ungernia Bunge* [95] **Tur:** *Ungernia victoris* Vved –
Viktor omonqorasi - Унгерния Виктора

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi tuxumsimon, yo'g'onligi 4-7 sm, piyozi ko'p, qora-qo'ng'ir qobiq bilan o'ralgan. Barglari 7-10 ta, qalami, ko'kish rangda, silliq, uzunligi 20-25 sm, eni 2-3 sm. Poyasi yassi, uzunligi 5-10 sm. So'yaboni 2-4-7 gulli. Gulqo'rg'on barglarining uzunligi 20-25 mm, eni 4-6 mm, nashtarsimon, o'tkir, sariq, pushti rangli, ichki tomoni pushti-qirmizi rangli hoshiyali.



Fenologiyasi: Avgust oyida gullab, sentabrda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysuntog' va Ko'hitang tizmasi)

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta qismidagi toshli, shag'alli, surilma yerlarda o'sadi.

Turkum: *Allium L.* [96] **Tur:** *Allium alexeianum* Regel–**Aleksey piyozi–
Лук Алексея**

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi deyarli sharsimon, kengligi 1,5-2 sm bo'lib, qora qog'ozsimon qobiq bilan qoplangan. Poyasi yo'g'on, uzunligi 10-20 sm oralig'ida. Barglari 1-3 tagacha nashtarsimon,

ellipssimon bo'lib, kengligi 2-5 sm. Soyaboni yarim sharsimon, ko'p gulli. Gulqo'rg'on bo'laklari deyarli yulduzsimon, pushti rangli bo'lib, to'q qizil tomirlangan, uzunligi 7-8 mm. Changchi iplari gulqo'rg'on bo'laklaridan 1,5 marta qisqa.

Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-avgustda mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun tog'lari), Samarqand. G'arbiy Pomir-Oloy endem turi.

Ekologiyasi: Tog'ning o'rta va yuqori qismidagi toshli, shag'alli va to'kilma yerlarda o'sadi.



[97]Tur: *Allium aroides* Popov & Vved–Aroidli piyoz– Лук аroidный

Qisqacha morfologiyasi: Piyoz tuxumsimon, kengligi 1-2 sm, kulrang-qo'ng'ir qobiq bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 20 sm atrofida bo'lib, barglaridan qisqa. Barglari 2 ta qalami, eni 5-10 mm bo'lib, chetlari va ostki tomonidagi tomirlari g'adir-budur. Soyaboni sharsimon yoki yarim sharsimon, kam gulli, siyrak, gulqo'rg'on bo'laklari yulduzsimon, yashil rangli bo'lib, to'q qizil tomirli, uzunligi 4 mm, to'mtoq. Changchi iplarining asosi tutashib xalqa hosil qilgan. Tugunchasi deyarli o'troq 6-7 urug'kurtakli.



Fenologiyasi: May-iyun oylarida gullab, iyun-iyul oylarida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun tog'lari), Samarqand.

Ekologiyasi: Tog'ning pastki qismidagi toshli, shag'alli, mayda tuproqli yerlarda o'sadi.

[98]Tur: *Allium caspium* (Pall.) M. Bieb–Kaspiy piyozi – Лук каспийский

Qisqacha morfologiyasi: Piyozi sharsimon, kenligi 2-4,5 sm gacha, qora rangli qog'ozsimon qobiq bilan o'ralgan. Poyasining uzunligi 10-30 sm. Barglari 1-3 ta, qalami-nashtarsimon, keng nashtarsimon eni 5-25 mm, poyasidan kalta. Soyaboni ko'pincha yarimsharsimon yoki sharsimon, ko'p gulli, juda siyrak. Gulqo'rg'on bo'laklari qo'ng'iroqsimon bo'lib yashil-binafsha rangli, uzunligi 5-11 mm, to'mtoq. Changchi iplari och binafsha rangli, gulqo'rg'onidan 1,5-2 marta uzun. Tugunchasi silliq, deyarli o'troq. Ko'sagi teskari tuxumsimon eni 4 mm atrofida.



Fenologiyasi: Aprel-may oylarida gullab, iyun oyida mevalaydi.

Areali: Surxondaryo (Boysun tog'lari).

Ekologiyasi: Tog' oldi hudularidagi ochiq olajinsli yerlarda o'sadi.

[99]Tur: *Allium drepanophyllum* Vved. – O'roq barg piyoz –

Лук серполиственный

